

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Filologiya fakulteti o‘zbek filologiyasi bo‘limi

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası

Ernazarova Iroda Shavkat qizi

**Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ma‘rifatli ayollar
talqini**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar

prof.Dilorom Salohiy

SAMARQAND - 2016

KIRISH I bob. ALISHER NAVOIY TAZKIRANAVISLIGIDA “NASOYIM UL- MUHABBAT” ASARINING O’ZIGA XOS TUTGAN O’RNI.

1.01 “Nafahot ul-uns” va “Nasoyim ul- muhabbat” asarlarining mushtarak va farqli jihatlari.

1.02. O’zbek adabiyotshunosligida “Nasoyim ul-muhabbat” asariga bo’lgan munosabat: tahlil,talqin va xulosalar.

II bob. NAVOIY IJODIDA XOTIN-QIZLAR BADIY TIMSOLLARI VA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI.

2.01. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ma’rifatli ayollar talqini.

2.02. Asarda ma’rifatli ayollar xislat va fazilatlarining yoritilishi.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, boy adabiy merosimizga bo'lgan munosabat ham yangicha bir tusda erkin asosda shakllana boshladi. Jumladan, mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma'naviy- ma'rifiy qiymatini belgilash, badiiy til xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizning ulkan ma'naviy boyligi bo'lgan diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi asarlar ham o'ziga xos talqinda o'rganila boshlandi. Chunki xalq yoki millatning shakllanishini bunday ruhdagi asarlardan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Buyuk ijodkor Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkisasi ham ma'naviy merosimizning betakror namunasi sifatida to'liq o'rganilmagan. Xususan, tazkirada keng o'rin berilgan ma'rifatli ayollar talqinining chuqur o'rganilib hayotga tatbiq etilishi jamiyatda xotin-qizlarning mavqeyi oshib borayotgan bir davrda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek Navoiy alohida ehtirom bilan e'tirof etgan karomatli ayollarning fazilatlaridan o'rnak olgan xotin-qizlargina millatimiz ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'sha olishadi. Zero, yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Ayollarning niyati xolis, yuragi, qalbi toza. Chindan ham eng ko'p mehnat qiladigan, oilani eng sevadigan, oilani haqiqiy oila, erkaklarni erkak qiladigan ham ayollarimizdir"¹.

Ayni shu jihatlar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligidagi bir qator tadqiqotlarda Alisher Navoiy ijodiy merosi, xususan, tazkiralarning o'rganilishi muammosi yoritilgan. Ishda o'rganilayotgan "Nasoyim ul-muhabbat" asariga doir bir nomzodlik dissertatsiyasi² va bir qator tadqiqotlar yuzaga kelgan³.

¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. T.: "O'zbekiston" 2015. 230-bet

² Исломов Х. И. "Насойим ул- муҳаббат" Алишера Навои и его научно-критический текст. Дисс. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. Ташкент, 1990.

Ammo ma'lum davrlarda avliyo va shayxlar haqida ma'lumotlar keltirilgan asarni noto'g'ri talqin etishlar va unga sotsiologik yondashuvlar tazkiraning o'rganilish darajasini cheklab qo'ydi. Asarning to'liq nashr etilmaganining o'ziyoq bu fikrni isbot etadi.

Tadqiqot maqsadi. “Nasoyim ul- muhabbat” tazkirasida Navoiyning g'oyaviy maqsadini aniqlash. Asarni chuqur o'rganish va ilmiy tadqiqotlarimiz uchun manba sifatida foydalanish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- asarning ilmiy-tanqidiy matnini qiyosiy o'rganish;
- asarda muallifning tasavvufiy-falsafiy qarashlari qanday ifoda etilganligini o'rganish;
- tazkirada zikrlari keltirilgan ma'rifatli ayollar shaxsiyatlari va badiiy timsollarni qiyosiy- tahliliy tadqiq etish;
- ijodkorning ma'rifatli ayollar ta'rif va tavsifida qo'llagan badiiy mahoratini aniqlash;
- asarda keltirilgan avliyo ayollar hayotiga doir ma'lumotni keng aspektda yoritish.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Mazkur kichik tadqiqotda Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida nomlari keltirilgan orifa ayollar fazilatlarini istiqbol mafkurasi va bugungi ilmiy tafakkur asosida yaxlit holda tadqiq va tahlil etildi. Muallifning tasavvuf ilmi sohasidagi yangicha qarashlari kashf etildi. Ya'ni juda kam ma'lumot uchraydigan orifa ayollar haqida Navoiyning g'oyaviy qarashlari aniqlandi.

³ Qarang : Qajumov A. Muhabbat shabbodalari // Ўзбекистон маданияти,1967, 15 март; Рамазонов Н. “Насойим ул-муҳаббат” ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти,2001, 1-сон, 14 – 17- бетлар; Абдуқодиров А. Жомий “Нафаҳот ул-унс”и ва Навоий “Насойим ул-муҳаббат”ининг муқаддималари. Навоийга армуғон (III китоб) Тошкент, 2003; Эргашев Қ. “Насойим ул-муҳаббат” да баён тарзига доир // Ўзбек тили ва адабиёти,2004, 1-сон, 22 – 25- бетлар; Ражабова Б. “Насойим ул-муҳаббат” да оналар образи //Ўзбек тили адабиёти,2013, 3-сон, 53 – 59- бетлар; Рўзиева Ў. “Насойим ул-муҳаббат” да сўфий аёллар зикри. Навоийга армуғон (IV китоб) Тошкент, 2004.

Tadqiqot obyekti. Ushbu malakaviy bitiruv ishi uchun asosiy manbaa sifatida Alisher Navoiyning 20 tomlik Mukammal asarlar to'plamining 17-tomidagi "Nasoyim ul-muhabbat" matni xizmat qildi.

Tadqiqot metodlari. Kichik doiradagi tadqiqotda tahlilning qiyosiy, ruhiy va mazmuniy metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu kichik tadqiqotning ilmiy – nazariy ahamiyati, avvalo, "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidagi 35 ma'rifatli ayollar bayonidagi ma'lumotlarning har tomonlama imkon qadar keng qamrovda tadqiq qilinishidan iborat. Shuningdek, tazkiraning orif darajasiga yetishgan ayollar qismidagi tasavvuf ilmi bilan bog'liq qarashlarga munosabat bildirish muayyan darajada nazariy ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini, xususan, XIV – XV asr adabiy muhitini, tazkirachilik sohasini yoritishda, tasavvuf ilmiga oid ilmiy va ilmiy – ommabop ishlar yozishda baholi qudrat xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ish materiallaridan bitiruv va diplom ishlari yozishda boshqa asarlardagi xotin-qizlar timsollarini ilmiy tadqiq qilishda, akademik litseylar, odatda, kollej talabalariga ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkin. Ishda yoritilgan ma'rifatli ayollarning fazilatlarini jamiyatga yoyish, o'rnak sifatida didaktik maqsadlarda foydalanish ham ishning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Ishning sinovdan o'tishi. Malakaviy bitiruv ishi Samarqand davlat universitetining o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida bajarildi. Shu kafedraning ... yig'ilishida muhokama qilinib himoyaga tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Bitiruv malakaviy ishi mazmuni ilmiy maqola ko'rinishida to'plamlarda chop etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, ikki bob, to'rt fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi - sahifa.

I bob. ALISHER NAVOIY TAZKIRANAVISLIGIDA “NASOYIM UL- MUHABBAT” ASARINING O’ZIGA XOS TUTGAN O’RNI

1-fasl. “Nafahot ul-uns” va “Nasoyim ul- muhabbat” asarlarining mushtarak va farqli jihatlari

Tazkira arabcha “zikr” so’zidan olingan bo’lib, estalik daftari ma’nosini anglatadi. Tazkiraning mavzu doirasi keng bo’lib, unda asotiriy va tarixiy voqealar, shaxslar, falsafiy qarash va nafis san’at, adabiyot hamda she’riyatga mansub shaxslar haqida so’z yuritiladi. Shu jihatdan tazkiralarda sohalarga bo’linib, tarix, falsafa, san’at va adabiyotga doir tazkiralarda mavjud. Jumladan, “Tazkirai Muqimxoniy” (tarixga oid), “Tazkirat ul- avliyo” (falsafa ahli- mutasavvuf-larga oid), “Tazkirat ush-shuaro” (shoirlarga oid), “Tazkirai xattoton” (xattotlarga oid) va boshqalar.

Alisher Navoiy zamonasiga qadar yozilgan tazkiralarda asosan arab va fors-tojik tilida edi. XV asrga qadar turkiy tilda yozilgan tazkiralarda hozircha juda oz. Jumladan, Rabg’uziyning “Qissas ul- aniyo”si shunday asarlar sirasiga, ya’ni payg’ambarlar haqidagi qissalar - zikrlardir. Alisher Navoiy bu holatni hisobga olib, o’zbek tilida tarix, falsafa va adabiyot sohlariga daxldor tazkiralarni maydonga keltirdi. Bular - zamondosh shoirlardan bahs yurituvchi “Majolis un-nafois” hamda falsafa ahli - mutasavvuf-larga bag’ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat” asaridir. Shuni eslatish joizki, bulardagi mushtarak xususiyat voqea va shaxslar faoliyati zikr qilinganligida ko’rinsa-da, ammo har bir asarning mavzusi bilan bog’liq o’ziga xos tuzilishi va bayon uslubi bor. Shu jihatdan bu asarlarning har biri alohida ilmiy- adabiy yodgorliklar sifatida qaraladi.

Kirish, asosiy qism va xulosadan iborat “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Navoiyning muhim adabiy merosi hisoblanadi. Asarning to’liq nomini Alisher Navoiy shunday keltiradi : “Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim ul- futuvvat” ya’ni “Muhabbat shabadalari va do’stlikning xushbo’y hidlari”. Tazkirada 770 mutasavvuf (735 erkak, 35 ayol) haqida ma’lumot keltirilgan bo’lib, asarning

erkak mutasavvuflar haqidagi qismi Shayx Uvays Qaraniy zikri bilan boshlanib, Abdurahmon Jomiy zikri bilan yakunlanadi. Orifa ayollarga bag'ishlangan qismi esa Robiya Adaviyadan boshlanib, Bibichayi Munajjima zikri bilan nihoyasiga yetadi.

Mazkur kitobning yozilish tarixi 901 hijriy- 1496—milodiy yildir. Alisher Navoiy shu asarning kirish qismida uning yozilish sababini bayon qilib, “Nasoyim ul-muhabbat” Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asaridan ilhomlanib, uni yanada mukammallashtirib yozilganligini uqtiradi.

Darhaqiqat, Abdurahmon Jomiyning mutasavvuflar tarixi – tazkirasi hisoblanmish “Nafahot ul- uns” asari 1476- 1477-yilda Alisher Navoiyning xohishi bilan yozilgan bo'lib unda 618 ta mutasavvuf (584 erkak, 34 ayol) ning zikri berilgan. Ammo asarda arab va fors- tojik mutasavvuflariga keng o'rin ajratilgan bo'lib, turkiy mutasavvuflar zikri to'liq emasdi. Ikkinchi tomondan esa mutasavvuflar haqida turkiy- o'zbek tilida birorta tazkira mavjud emas edi. Alisher Navoiy ana shularni nazarda tutgan holda mutasavvuflar haqida turkiy - o'zbek tilida tazkira yaratib, unga ko'p yangiliklar kiritdi, turkiy mashoyix- mutasavvuflar tarixini ham o'sha davr nuqtayi nazaridan birinchi bo'lib mukammal tarzda maydonga keltirdi. Bu esa Alisher Navoiyning nihoyatda ulug' xizmatlaridan biridir. Bu haqida Navoiyning o'zi shunday go'zal va aniq yozganki, uni to'liq keltirish har qanday sharh-u izohdan afzaldir:

“Tarix to'qquz yuz birdaki, ul kitob (“Nafahot ul-uns”) ning ta'lifidan yigirma yil o'tub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug' ishg'a ilik urdum va bu azim amrg'a qalam surdum. Va hazrat shayx Fariduddin Attor q.s. bitgan “Tazkirat ul- avliyo”din ba'zi kibor mashoyixkim, “Nafahot ul- uns”g'a doxil bo'lmabdur erdi, har qaysini munosib mahalda doxil qildim. Va hind mashoyixi sharhi ham (“Nafahot ul-uns”da) oz mazkur erdi, mumkin bor tilab , topib,hazrat qutb ul- avliyo Shayx Farid Shakarganj q.s.din so'nggi mashoyixgacha ilhoq qildim (ya'ni kiritdim, qo'shdim). Va turk mashoyixi zikri ham (“Nafahot ul-uns”da) ozroq erdi, oni dog'i hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.a.din bu zamong'acha ulcha mumkin bor tilab, topib, zikrlarin va ba'zi holotu so'zlarin o'z mahallida darj

qildim. Va hazrat Maxdumiy n.m.n (Abdurahmon Jomiy) ning oti va muosiru va musohib mashoyix q.a. zikri dag'ikim, ul mutabarruk kitobda ("Nafahot-ul-uns"da) yo'q erdi, munda qo'shdum. Va ul kitobda dag'i avliyulloh zikridin ba'zi so'zким, zamon ahlig'a ko'p muhtoj un-ilayh ermas erdi(Ya'ni zamon ahliga uncha ehtiyoji yo'q edi) itnob va vahmidin (ya'ni cho'zilib ketishidan qo'rqib) tarkin tutdim (qisqartirdim)"⁴.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, "Nasoyim ul- muhabbat" tazkirasi "Nafahot ul- uns" ning ta'sirida yozilgan, lekin erkin, ijodiy yondashilgan mukammal, mustaqil qomusiy asar hisoblanadi.

Bu haqida adabiyotshunoslikda turlicha fikrlar bildirilgan. Sharqshunos va navoiyshunos E.Bertels ham o'z tadqiqotlarida "Nasoyim ul- muhabbat" haqida qisqacha to'xtalib , uning so'fiylik tarixiga oid muhim manba ekanligini, bu asar Jomiy "Nafahot"ining chig'atoycha- o'zbekcha tarjimasini ekanligini ta'kidlaydi⁵.

1991-yilda Eronda "Nafahotul-uns" asarining tanqidiy matnini nashr etgan doktor Mahmud Obidiy kitob so'z boshisida Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarini "Nafahotul uns" ning Chig'atoy turkiy tarjimasini deb baholaydi. Ammo bu fikrlarni ilmiy jihatdan to'g'ri deb bo'lmaydi.

Olim A.Abduqodirov tazkiralardagi muqaddimalarni solishtirish orqali ikkala asardagi farqlarni aniqlashtirgan: "Navoiy tarjimasini ayrim yangilik va qo'shimchalarga ega. Avvalo, Navoiy Jomiy muqaddimasini tarjima qilmay, yangi muqaddima yozdi. Ikkinchidan, "Nafahot" ga kiritilmagan turk mashoyixlarini "Nasoyim ul- muhabbat"ga kiritib, tasavvuf ahli sonini 770 nafarga yetkazdi. Uchinchidan, Navoiy tarjima jarayonida Jomiy asaridagi ko'pgina mashoyixlar hayoti va faoliyatini yangi manbalar bilan boyitdi. "Nafahot ul-uns" muqaddimasi tasavvufning nazariy masalalariga bag'ishlangan. U 9 bo'limdan iborat va har bir bo'limda tasavvufning muayyan bir masalasi tadqiq etilgan. "Nasoyim"

⁴ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17 том. Т.: Фан, 2001. 12-17-бетлар.

⁵ Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Избр.труды.Том. 4, М.,1965.С.180.

muqaddimasi “Nafahot” nikiga nisbatan ancha qisqa. Unda asarning yaratilishi, unga kiritilgan qo’shimchalar, tasavvuf ahlining yashash tarzi; shariat bosqichining tasavvufiy mohiyati va talablari, tasavvuf tariqatining maqomlari va avliyolik darajasiga yetgan so’fiylar haqida fikr yuritiladi. “Nasoyim” muqaddimasi to’laligicha nashr etilgan, ammo “Nafahot” muqaddimasi haligacha O’zbekistonda ham, Tojikistonda ham chop etilmagan”⁶.

N.Ramazonov esa bu haqida quyidagicha ma’lumot beradi : “ Jomiyning “Nafahot ul-uns” asaridan 616 shayxning tarjimayi holi o’rin olgan. Navoiy Jomiy asaridagi 60 tarjimayi holni qisqartiradi, biroq “Nafahot” da tilga olinmagan 214 shayx hayoti haqidagi ma’lumotlarni qo’shib, “Nasoyim” da zikr etilgan shayxlar sonini 770 ga yetkazadi ”⁷.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan va bu asar yuzasidan nomzodlik ishi qilgan H.Islomiy “Nasoyim ul-muhabbat va “Nafahot ul-uns”ni quyidagicha farqlaydi⁸

- “Nasoyim ul-muhabbat”da mustaqil kirish qismi bor.

- “Nafahot ul-uns”dagi kirish va muqaddima qismi kiritilmagan.

-Fariduddin Attorning “ Tazkiratul avliyo” asarda bayoni keltirilgan 19 nafar mashhur avliyo bayoni qo’shilgan.

-36 hind mashoyixi qo’shilgan.

-100dan ortiq turkiy mashoyixlar, jumladan, Abu Mansur Motrudiy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmud, Bobo Qurqut, Shayx San’on, Xo’ja Boyazid va Navoiy zamondoshlaridan Mavlono Lutfiy, Muhammad Tabadgoniy va boshqalr qo’shilgan.

⁶ Абдуқодиров А. Жомий “Нафаҳот ул-унс”и ва Навоий “Насойим ул-муҳаббат”ининг муқаддималари. Навоийга армуғон (III китоб) Тошкент, 2003. 69- бет.

⁷ Рамазонов Н. “Насойим ул-муҳаббат” ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 1-сон, 14- бет.

⁸ Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат: (Илмий- танқидий матн). Сўзбоши. Ҳ.Ислomий. – Т.: “Movarounnahr”, 2011. 19 – б.

- Abdurahmon Jomiyning o'zini ham avliyolar qatorida vasf etgan.

-Mavlono Jomiyning “Nafahot ul-uns” asari xonahoq asoschisi Abu Hoshimas-Sufiy (VIII) bayoni bilan boshlanadi. Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari Janobi Rasullohning zamondoshi Shayx Uvays Qaraniy (VII asr boshi) bayonidan boshlanadi.

“Nasoyim ul- muhabbat” ning eng so'nggi nashrini tayyorlagan tadqiqotchi Olimjon Davlatov ham tazkiraga bir tildan ikkinchi tilga o'girilgan asar sifatida emas, balki ijodiy yondashuvga tayanilgan tarjima sifatida baho beradi ⁹. Buni quyidagicha izohlaydi:

Birinchidan, “Nafahot ul-uns” murakkab ilmiy-nazariy asar bo'lib, undagi arabcha va forsha ta'birlar va hikmatlar asosan ramz va ishora tilida aytilganligi sabab tasavvufiy istilohlardan bexabar kimsa uchun bu so'zlarning mohiyatini anglash qiyinchilik bilan kechadi. “Nasoyim” ni o'quvchida esa bunday qiyinchilik ozroq bo'ladi.

Ikkinchidan, Jomiy o'z asarini yozishda, asosan, Imom Yof'iy, Sullamiy hamda Ansoriylarning tazkiralariга tayangan. Navoiy esa, Shayx Faridduddin Attorning “Tazkirat ul- avliyo” asaridagi 19 nafar mashhur avliyo, Shayx Fariddin Shakarganjdan so'ng Hindistonda yashab o'tgan 31 shayx, shuningdek 100 dan ortiq turk mashoyixlari haqidagi ma'lumotlarni qo'shimcha tarzda keltirgan. Undan tashqari, Nosir Xusrav, Shayx Mahmud Shabustariy, Ozariy, Lutfiy, Ashraf, Nasimiy, Shayx Imoduddin Faqih, Mavlono Jomiy kabi valiylik maqomiga erishgan shoirlar haqida ham o'rin ajratilgan. O'zi bevosita muloqot qilgan valiy sifat zamondoshlaridan Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy, Bobo Xokiy, Bobo Ali Mast Nisoiy, Bobo Xushkeldi singari Xudoning nazari tushgan aziz zotlar haqida ham ma'lumot berib, shayxlar sonini 618 tadan 770 taga yetkizgan. Shuningdek Navoiy o'z asarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishda qisqartirish yo'lidan ham borgan. Ko'p rivoyatlar, bahsli nuqtalar, mohiyatan bir-birining

⁹ Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. Т.: “O'zbekiston” 2015. 6-8-бетлар.

takrori bo'lgan hikmatlarni tarjima qilmagan. Bahs va ixtilofga sabab bo'ladigan ayrim shayxlar haqidagi fasllarni umuman tashlab ketgan.

“Nafahot ul- uns” da keltirilgan ba’zi parchalar(masalan, Shayx Afifiddin haqidagi hikoya)ni to’g’ri tushunish va talqin qilish uchun o’quvchi tasavvuf va irfonning borliq, butun va bo’lak, kul va juz’, hol va maqom, jam’ va tafriqa, tahqiq va taqlid kabi tushunchalaridan xabardorlik bilan birga fiqh ilmini ham mukammal o’zlashtirgan bo’lishi kerak. Navoiy o’quvchini murakkablik va anglashilmovchilikdan uzoq tutish maqsadida bunday parchalarni tushirib qoldirgan.

Alisher Navoiy tanlagan hikoyatlar, hikmat va rivoyatlarning asosiy qismi bashariy xislatlarni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ma’rifatni egallashga bel bog’lagan zotlarning ruhiy- axloqiy kamolot yo’li, dunyoning arzimas manfaatlari ustidan g’olib chiqib, tafakkurining sathi osmon-u falaklar qadar keng qamrovli, ko’ngli Ma’rifat va Muhabbat maxzaniga aylangan komil insonlar haqida. Bunday hikoyatlar har bir insonning ruhiyatiga ko’klamning hayotbaxsh nasimiday tozalik olib kiradi.

Shuningdek Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot al-quds” asarida birinchi marta el orasida so’fiy laqabi bilan shuhrat qozongan kishi Abu Hoshim Kufiy ekanligi aytilgan. Lekin Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat min shamoil ul-futuvvat” asarida birinchi so’fiy sifatida hazrati Payg’ambarimizning zamondoshi va muhibi Uvays Qaraniy tilga olinadi.

Umuman olganda, “Nasoyim ul-muhabbat” asari Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasidan ta’sirlanib yozilgan, mustaqil novatorlik xususiyatlariga ega bo’lgan mukammal tazkiradir. “Nasoyim ul- muhabbat” ning juda ko’p o’rinlarida “Nafahot” ga ishoralar bor. Bu esa ikki tazkiraning mushtarak xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, ma’rifatli ayol **Fidda** tasvirida uning mashhur karomatlari borligi, qo’yidan ham sut, ham bol sog’ishi yozilib, uning tafsiloti “Nafahot”da ekanligi alohida ta’kidlangan. Aynan shu o’rinda

Navoiy kamtarona lutf bilan o'quvchini "Nafahot" ni o'qishga chorlaydi. Soliha ayol **Tuhfa** haqidagi o'rinda esa bunday ma'lumot keltiriladi: "Ul nisoning solihoti, balki vosilotidin ermish. Hazrati Mahdumiy n.m.n. "Nafahot ul- uns"da aning zikrida ancha g'aroyib va aning holotida ancha ajoyib bitibdurlarki, sharhg'a rost kelmas. Bu muxtasarda mundin ortuqroqning gunjoyishi yo'q erdi. Ul holotqa ittilo' tilagan, ul kitobdin tilasun!".

Aynan ana shu o'rinlarda "Nasoyim"ni "Nafahot"ning tarjimasi deyish mutlaqo xato bo'ladi. Chunki tarjimada aynan matn mazmuni yoritiladi, unga ishora qilinmaydi. Xulosa qilib aytganda, "Nasoyim ul-muhabbat" va "Nafahot ul-uns" bir-birini to'ldirib turadigan, ammo har ikkalasida o'zgacha bir olam aks etib turgan qomusiy tazkiralardir. Ularning mushtarak xususiyatlaridan ko'ra, farqli jihatlari ko'proq ko'zga tashlanib, birini o'qigan o'quvchi ikkinchisini o'qishga ham ehtiyoj sezadi.

2-fasl. O'zbek adabiyotshunosligida "Nasoyim ul-muhabbat" asariga bo'lgan munosabat: tahlil, talqin va xulosalar

"Nasoyim ul- muhabbat" islom sivilizatsiyasi hududlarida VII- XV asrlar davomida faoliyat ko'rsatgan arab, fors, turk va hind mutasavvuflaridan bahs yuritadigan va o'sha davrda bu sohada mukammal hisoblangan tazkira – qomuslardandir. Buni asarning didaktik, tarixiy, badiiy, avtobiografik va ilmiy jihatlarini e'tirof etish orqali isbot qilish mumkin.

Tazkirada mashoyixlar yoki Navoiy tilidan bayon qilingan arab va fors-tojik tilida mingdan ortiq oyat, hadis, hikmat va she'riy parchalar keltirilgan. Bu asarning didaktik xususiyatini namoyon etadi.

Akademik B.Valixo'jayev esa tazkiraning yana bir muhim jihatini quyidagicha e'tirof etadi: "Nasoyim ul-muhabbat" tasavvuf ahli silsilasiga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda forsiy va turkiy nazmning ko'pgina mashhur namoyondalari haqida ham asarning mavzusi bilan bog'liq tarzda ma'lumot keltirilgan, boshqacha qilib aytganda, Alisher Navoiy bu asarida mashur shoirlar faoliyatida faylasufona yondashib, bir tomondan, ular faoliyatida o'rta asrlardagi tasavvuf va uning ko'rinishlarini kuzatsa, ikkinchi tomondan, ularning badiiy ijodlari va shu sohadagi alohida xizmatlarini ham ta'kidlaydi. Bu jihatdan turkiy tilda ijod qilgan Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Hakim ota, Adib Ahmad, Mavlono Lutfiy, Mavlono Muqimiy, Sayid Nasimiylar haqida yozganlari diqqatga sazovar"¹⁰.

Asarning avtobiografik jihatini e'tirof etgan Aziz Qayumovning fikrlari esa "Nasoyim ul- muhabbat"ning qomusiy asar ekanligini yana bir bor isbot etadi: "Biz "Nasoyim ul- muhabbat" kitobida Navoiyning tarjimai holi, uning atrofidagi kishilar, ustoz Jomiy bilan ijodiy hamkorligi to'g'risida qo'shimcha

¹⁰ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.—Т.: «Ўзбекистон», 1993. 79-бет.

ma'lumotlar topamiz. Bu ma'lumotlarning Navoiy hayoti va ijodini to'laroq o'rganishdagi ahamiyati shubhasizdir"¹¹.

O'zbek adabiyotshunosligida bugungi kunga qadar "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasiga doir turlicha munosabatlarni ko'rish mumkin. Shuningdek asarning tahlili va talqini haqidagi xulosalar ham rang-barang.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qomusiy asar darajasida baholanadigan bu asar adabiyotshunosligimizda hanuz qoniqarli darajada tadqiq etilmagan. Sababi ma'lum davrlarda Navoiyning diniy-falsafiy asarlariga nisbatan "mistik mazmundagi asarlar" sifatidagi qarashlar shakllandi. Bu esa shunday asarlar sirasiga kiruvchi "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasining ham o'rganilish doirasini chegaralab qo'ydi.

Tarix va madaniy merosimizni keng o'rganayotgan hamda naqshbandiylik ta'limotiga rag'bat ko'rsatayotgan ekanmiz, bu asarning to'liq holda nashr etilishi va tadqiq qilinishi ilmiy, ma'rifiy va axloqiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Imom A'zam, Imom Motrudiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshbandiylarning aqida va qarashlari bilan xalqimizni, xususan, yoshlarimizni yaqindan tanishtirish tazkirada zikr etilgan ma'rifatli insonlar fazilatlarini o'rnak sifatida e'tirof etish joizdir.

"Nasoyim ul-muhabbat" asarini o'rganish va ilmiy tadqiq etish uning qo'lyozma nusxalarini tavsiflashdan boshlanadi. Tazkiraning bizgacha ko'plab qo'lyozma nusxalari yetib kelgan¹²:

1. Istanbul nusxasi. Istanbulning To'pqopi kuyubxonasida 808-raqam ostida saqlanayotgan "Navoiy kulliyoti" ichidagi nusxa. Ushbu nusxa qo'lyozmalar ichidagi eng qadimgisi va mukammali bo'lib, u asar yozilgan 1495-yilda Hirotda Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko'chirilgan. Hajmi 236 bet bo'lib, kulliyotning 55b – 174a varaqlaridan o'rin olgan.

¹¹ Qarang : Қаюмов А. "Насоим"ни varaqlaganda // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 1-сон, 12 – 15- бетлар.

¹² Рамазонов Н. "Насойим ул-муҳаббат" ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 1-сон, 14 – 17-бетлар.

2.Parij nusxasi. Parij milliy kutubxonasi 316va 317 tartib raqamlari ostida saqlanayotgan ikki jildlik Navoiy kulliyotining 1-jild 22b-154a varaqlaridan o'rin olgan nusxa.Hajmi 264 betdan iborat. Xati nasta'liq,1526-yilda Hirot shahrida Ali Hijroniy tomonidan ko'chirilgan. Nusxa E.Bloshe tomonidan o'rganilgan.

3.Sankt-Peterburg nusxalari. Rossiya FASHI S.Peterburg bo'limida saqlanadi. XVI asrda ko'chirilgan bo'lib, to'liq yaxshi saqlangan,116 varaq. Ushbu nusxalar ilk marta S.Volin tomonidan tavsif etilgan.

4.Toshkent nusxalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida "Nasoyim"ning besh nusxasi saqlanadi.

Bulardan tashqari ham tazkiraning bir nechta nusxalari mavjud. Ingliz olimi Charlz Riyo 1888- yilda Britaniya Muzeyi fondidagi turkey qo'lyozmalrni tavsiflarkan, "Nasoyim ul-muhabbat"ning 17-18- asrlarda Hindistonda ko'chirilgan nusxasi haqida ma'lumot beradi. Rus sharqshunos olimi A.A. Semenev esa Alisher Navoiy asarlarining qo'lyozmalari haqidagi tadqiqotida "Nasoyim ul-muhabbat"ning nusxalarini ham sanab o'tgan.

"Nasoyim ul-muhabbat" matni ayrim qisqartirishlar bilan Navoiy asarlarining 15-jildida e'lon qilingan¹³.

1979 – yilda "Nasoyim ul-muhabbat"ning qiyosiy matni lotin alifbosida Kamol Eraslon tomonidan nashrga tayyorlanib chop etildi.

2001-yili esa Alisher Navoiy yigirma jildlik asarlar to'plamining 17- jildi sifatida "Nasoyim ul- muhabbat" asari nashrdan chiqdi ¹⁴. Ammo biz asosiy manba sifatida qarayotgan bu nashr kamchiliklardan holi emas.Bu haqida mutaxassis G'.Karimiy shunday ma'lumot beradi: "...Buyuk adibning eng yirik nasriy asari O'zbekistonda ilk bor to'liq holida nashr etilishi quvonchli hodisa, albatta. Biroq bu nashrni ko'zdan kechirgan, ayniqsa, ilmiy ishlarida foydalanmoqchi bo'lgan

¹³ Навоий Алишер. Асарлар. 15 –том. Тошкент, 1968. 69 – 186- бетлар.

¹⁴ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17 том. Т.: Фан, 2001.

mutaxassis o‘ylanib qoladi. Kitobda xatodan xoli sahifa kam. Boz ustiga, Navoiy matnidagi ko‘plab so‘z va jumlar e‘tiborsizlik natijasida tushirib qoldirilgan. Ba‘zi so‘zlarning to‘g‘risini va nashrdagi xato shakllarini quyida keltiramiz: “ul kitobdag‘i” – “ul kitobda dag‘i”, “siroti mustaqim” – “siyrati mustaqim”, “aning man‘in” – “ani mutaayyin”, “yozi giyohi” – yoz giyohi”, “inak” – “onak”, “anga rom” – “orom”, “yoyoq” (yayov ma‘nosida) – “ayoq”, “suvab” – “savob”, “Tum” – (hozirgi Tim) – “Qum”, “hakim” – “hukm” va hokazo. Bu kabi xatolar kitobxonga matn ma‘nosini qiyinlashtirib, ba‘zan uni mutlaqo tushunarsiz qilib qo‘yadi. Masalan: “Ul it boshin ul harfqa solib, ul sutdin ichti” jumlasidan so‘ng, “It boshini qanaqa harfqa tiqdi ekan?”, deb bosh qotirish mumkin. Holbuki, bu so‘z asliyatda “zarf”, ya‘ni idishdir. Xatolar tufayli ba‘zi hollarda Navoiy ko‘zda tutganiga zid ma‘nolar chiqarish mumkin. Nashrga tayyorlovchilar ayrim so‘zlarni “to‘g‘rilab” tabdil qilishlari natijasida “tushunarli, ayon” ma‘nosidagi “mafahm” so‘zi barcha hollarda teskari ma‘nodagi “mavhum” shaklida yozilgan. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimi Hamidxon Islomiy “Nasoyim ul-muhabbat” ustida izlanishlar olib borib, nomzodlik ishini yoqlagan edi. Domla “Nasoyim”ning Turkiya, Rossiya, Fransiya va O‘zbekistondagi eng qadimgi, ba‘zilari Alisher Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgan mo‘tabar nusxalar asosidagi matnini o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillaridayoq hozirlagandi. Balki Navoiy asarlarining 17-jildini tayyorlashda ana shu matn ham e‘tiborga olinganda foydasi tegarmidi?”¹⁵.

2011-yilda Hamidxon Islomiy boshchiligida “Nasoyim ul-muhabbat” ning ilmiy - tanqidiy matni e‘lon qilindi¹⁶.

Umuman olganda, asarni o‘rganish uchun matn va manbalar yetarli. Lekin shu vaqtgacha qilingan tadqiqotlarda tazkira, asosan, Navoiy biografiyasiga oid ma‘lumot beruvchi manba sifatida tahlilga tortilgan (o‘sha davr ilmiy-siyosiy

¹⁵ Karimiy G’. Mutaxassis mas‘uliyati // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2010, 44 - son.

¹⁶ Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат: (Илмий- танқидий матн). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва кўрсаткичлар муаллифи Ҳ.Исломиёв. – Т.: “Movarounnahr”, 2011. – 472 б.

muhibti taqozosi bilan). Binobarin, “Nasoyim”ning tasavvuf ta’limotidan bahs etuvchi manba ekanligi nazardan chetda qolgan.

O’zbek adabiyotshunosligida bugungi kunga qadar “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasiga doir turlicha munosabatlarni ko’rish mumkin. Shuningdek asarning tahlili va talqini haqidagi xulosalar ham rang-barang.

“O’zbek adabiyoti tarixi” da asar haqida shunday ma’lumotlar keltirilgan: “Nasoyim ul-muhabbat” Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarning tarjimai bo’lib, Alisher Navoiyning ham prozaik, ham tarjimon sifatidagi iste’dodini namoyish qiluvchi asardir... “Nasoyim ul-muhabbat” “Nafahot ul-uns” asosida yaratilgani sababli undagi fikr- mulohazalar ikki maslakdosh adib - Navoiy bilan Jomiyga tegishlidir. “Nasoyim ul- muhabbat” tasavvuf tariqi qonun-qoidalari, tasavvuf ahliga xos xususiyatlar va ular hayotiga oid lavhalarni bayon etadi. Dastlab shoir “bu toifaning a’mol va af’ol va muomilot va riyozatidin ba’zini zikr qilmoq sarlavhachasi ostida bir qator shayxlar shaxsini ta’riflab keltiradi va bunda ularning kasb-hunariga e’tibor berib, halol mehnat bilan kun kechirishlarini alohida ta’kidlaydi....”¹⁷.

Shuningdek asar strukturasi haqida umumiy ma’lumotlar va odob-axloq bilan bog’liq jihatlar haqida yaxshi fikrlar keltirilgan. Ammo biz tadqiq etayotgan ma’rifatli ayollar zikriga oid ma’lumotlar berilmagan.

1978- yilda N. Mallayev muallifligida chop etilgan “O’zbek adabiyoti tarixi” kitobida Navoiyning buyuk asari “Nasoyim ul-muhabbat” haqida biror ma’lumot uchratmaymiz (yozilgan yilidan tashqari). Chunki bu asar o’sha davr siyosatiga mos kelmas edi. Vaholanki, asar Navoiy ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

1980-yilda “Nasoyim ul-muhabbat” asarini tahlilga tortgan Aziz Qayumov asarning avtobiografik jihatlariga asosiy e’tiborini qaratadi: “Navoiyning oila a’zolari va yaqinlari to’g’risida “Nasoyim” da birmuncha qiziqarli ma’lumotlar

¹⁷ Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. II том . – Т,: “Фан” 1977. 449-453-бетлар.

uchraydi. Xususan, Navoiyning otasi to'g'risidagi lavhalar e'tiborga molik"¹⁸. Shuningdek maqolada Navoiyning ustozlari, yaqin hammaslamlari va do'stlari haqidagi ma'lumotlarga to'xtalib, Muhammad Tabodgoniy, Mavlono Qosim, Xoja Abdulaziz Jomiy, Sayyid Hasan, Xoja Avhad Mustavfiy va Jomiy kabi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Umuman olganda, maqolada "Nasoyim" dagi avtobiografik dalillar o'rganiladi.

Olim N.Ramazonov o'zining ilmiy maqolasida tazkiraning manbalariga alohida to'xtalib, bu haqida muhim ma'lumotlarni yoritadi : " Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" ni yaratishda tasavvufiy, diniy, adabiy, tarixiy va og'zaki manbalardan foydalangan. "Nasoyim ul-muhabbat" da jami 100 dan ortiq kitob nomi zikr etiladi. Ammo ba'zi manbalar muhimligi jihatidan boshqalardan ajralib turadi va muallif ularga asar davomida ko'p martalab murojaat qiladi. Shunday asarlar jumlasidan Abu Abdurahmon Sulamiyning "Tabaqot us-sufiya", Abulqosim Qushayriyning "Risalat fit- tasavvuf", Abdulloh Ansoriyning "Manozil us- soirin", Hujavriyning "Kashf ul-mahjub", Muhammad bin Munavvarning "Asror at- tavid fi maqomoti Shayx Abu Said", "Maqomoti Shayx Fariduddin Shakarganj", Ishoq bin Ali Dehlaviyning "Asror ul-avliyo" kabi asarlarini sanash mumkin"¹⁹.

Hamidxon Islomiy tomonidan esa "Nasoyim ul-muhabbat" ning manbalari quyidagicha keltiriladi:

1. "Nafahotul uns"
2. "Tazkiratul avliyo"
3. Hind mashoyixlari.
4. Turk mashoyixlari ²⁰.

¹⁸ Qayumov A. "Nasoyim" ni varaqlaganda // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 1-сон, 12 – 15- бетлар.

¹⁹ Рамазонов Н. "Насойим ул-муҳаббат" ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 1-сон, 14 – 17-бетлар.

²⁰ Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат: (Илмий- танқидий матн). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва кўрсаткичлар муаллифи Ҳ.Исломи. – Т.: "Movarounnahr", 2011. 18- бет.

“Nasoyim ul- muhabbat” ning biz tahlilga tortayotgan qismida esa Shayx Muhyiddin Arabiyning “Futuhoti Makkiy”, Abu Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqot us-sufiya”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Imom Yof’iyning “Ravz ur- rayohin” kitoblari asosiy manba sifatida tilga olingan.

Asar tahlili bilan shug’ullangan Q.Ergashev esa “Nasoyim ul-muhabbat” aks etgan Navoiy uslubiga asosiy e’tiborini qaratadi²¹. Muallifning ta’kidlashicha, Navoiy nasriy asarlarida bayon tarzi har bir asarning g’oyasi, janr xususiyatlari, muallifning maqsad va niyatlari bilan bog’liq ravishda o’ziga xoslik kasb etadi, ayni paytda, ularning barchasida Navoiy uslubiga xos umumiy xususiyatlar ko’zga tashlanadi, ya’ni uning “qalami” sezilib turadi. Bayon tarzining sodda yoki murakkab bo’lishi ham aksar hollarda muallifning maqsadidan kelib chiqadi. Masalan, Navoiy o’z tazkiralarda shoirlar yoki tasavvuf vakillari haqida ma’lumot berish maqsadini ko’zda tutadi va mazkur maqsadga mos bayon tarzini tanlaydi. “Nasoyim ul-muhabbat” da muallif tasavvuf vakillarini birin-ketin zikr etadi, ularga ta’rif –tavsif beradi, ular haqidagi ma’lumotlar, naql-rivoyatlarni keltiradi.

Umuman, O.Davlatov so’zi bilan aytganda, “Hazrat Navoiy “Nasoyim” da zikr etgan valiyalar siymosida insoniyatning ideallari, bashariyatning asl qiyofasini ko’rgan va barchani Alloh aziz etgan bandalaridan o’rnak olishga da’vat etgan”.²²

Asar muqaddimasida aytadilarki:

“Olloh odamdan buyukroq va sharifroq xilqatni yaratmagan, negaki, ma’rifat xazinasining, ganjining mahrami, amini odamdir. Va dediki, men bir maxfiy xazina edim, o’zimni bildirish, tanitish uchun barcha olamni yaratdim.

Va bu bashariyatni yaratdi. Bashariyat muqtazosi bila alardin nopisand ishlar vujud tutdi. Bularning islohi uchun ba’zi bir bandalarining boshiga payg’ambarlik tojini qo’yub, beliga hidoyat kamarini bog’ladi va bularga hakim qildi. Hamda kalomu ahkom, ya’ni muqaddas hukmlarni ularga nozil qildi.

²¹ Эргашев Қ. “Насойим ул-муҳаббат” да баён тарзига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 1-сон, 22 – 25-бетлар.

²² Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. Т.: “O’zbekiston” 2015. 6-бет.

Vaholanki, ular yaratuvchining mazhari edilar, uning ismi va sifatlarining ko'rinishlari edilar. Ularning har biri o'z qobiliyatlariga ko'ra uning bir sifatini namoyon qilardi. Ammo bani odam tafovutni yuzaga keltirdi va turli dinlar, millatlar oraga tushdi. Bu paytgacha millatlarning ulug'i, kuchlisi arablar edi. Ularning hidoyati uchun zoti sharifi pok bo'lgan Muhammad payg'ambarni tabib qilib yubordi va hukmlarini unga nozil qildi. U qavmlarning kuchlisi, anbiyolarning sharifi edi. U nozil bo'lgan kalom qonuni bilan botil millatlarni oradan chiqardi va qobil xalqni ma'rifatg'a musharraf qildi.

Va u hazrat payg'ambarlarning oxiri edi. Undan so'ng nubuvvat eshigi bog'landi. Undan keyingi nuqsonlarni tugatish uchun komilu olimlarni nomvor etdiki, bu bilan olam inqirozigacha millat va shariat siyrati mustaqim, ya'ni to'g'ri bo'ladi. Bu toifakim, valoyatu karomat ahlidurlar va xaloyiqg'a yo'l ko'rasatuvchi va o'rgatuvchidirlar"²³.

Mana shunday insoniyat tamadduniga hissa qo'shgan valoyat egalaridan o'ttiz beshtasi ayol mashoyixlardir.

²³ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17 том. Т.: Фан, 2001.18-19-бетлар.

II bob. NAVOIY IJODIDA XOTIN-QIZLAR BADIY TIMSOLLARI VA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

1-fasl. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ma’rifatli ayollar talqini

“Navoiy ijodidagi bir qator tarixiy- badiiy obrazlar, jumladan, Alanquva, Zoli zar, Xalima ona, Bilqisi soniy- Xadichabegim timsollari o’zbek adabiyotshunosligida muayyan darajada tahlil etilgan”²⁴.

Hazrat Navoiy ijodida har bir mavzuga munosabat alohida bir olamni tashkil etadi. Jumladan, Navoiy asarlaridagi tarixiy, badiiy va afsonaviy ayollar timsollari ham ijodkorning boy g’oyaviy dunyosi bilan tuyungan. Ijodkorning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Tarixi muluki ajam” asarlarida tilga olingan xotin-qizlar: Ashira, Jaroda, Zalig’a, Bibi Maryam, Osiyo, Rayona, Rohila, Faliha, Havvo (“Tarixi anbiyo va hukamo”); Bahmando’xt, Malika, Mahondo’xt, Ozarmido’xt, Sudoba, Farang (“Tarixi muluki ajam”) haqidagi ma’lumotlarda ko’proq diniy, tarixiy jihatlariga e’tibor qaratilgan bo’lsa, “Xamsa” dostonlarida tasviri keltirgan ayollarning insoniy fazilatlarini talqini yetakchi planga chiqadi. Masalan, “Saddi Iskandariy” da olijanob fazilatlarini o’zida mujassamlashtirgan Ravshanak, Nozmehr, Bonu va Lu’bati Chin kabi ajoyib xotin-qizlar obrazi e’tiborimizni tortadi. “Sab’ai sayyor” da esa Dilorom, Alonquvo, Kubro (Muhammad payg’ambarning 1-xotini Hadicha), Mehr singari ayollar siymosi yorqin aks ettirilgan. Yoinki Shirin, Layli, Mehinbonu kabi xotin-qizlar tasvirida ham Navoiyga xos uslub va munosabat yaqqol namoyon bo’ladi. Masalan, birgina Mehinbonu obrazining fazilatlarini tahlilga tortsak, ma’rifatli, ilm-fan homiysi bo’lgan ayollar Navoiyning ideali bo’lganligini anglash qiyin emas. Hazrat “Nasoyim” da hurmat bilan e’tirof etgan orifa ayollarning fazilatlarini o’zining tarixiy va badiiy obrazlariga ham singdirib yuborgan degan fikrga kelish mumkin. Navoiy qiyofalantirgan Mehinbonu- adolatli hukmdor, u mamlakatning obodligi va xalqning osoyishtaligi uchun kurashadi. Ariq va hovuz qazish ishiga rahbarlik

²⁴ Ражабова Б. “Насойим ул-муҳаббат” да оналар образи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, 3-сон, 53 – 59-бетлар

qiladi. Mehinbonu- ilm-ma'rifat homiysi. U kishilarning ilmi bo'lishiga har tomonlama ko'maklashadi, olimlarni qadrlaydi, hurmat qiladi. Uning saroyidagi o'n qiz ilm va hunar ajoyib kishilar bo'lib yetishadi :

...Bu fanlarda bular bir-birdan ahsan,

Yuz ul fanlik aro har qaysi yakfan,

Diloromu, Diloroyu Diloso,

Gulandomu Sumanbo'yu Sumanso.

Parichehru Parizodu Parivash,

Pari-paykar – zihi o'n ismi dilcash.

“Nasoyim ul-muhabbat”da e'tirof etilishicha, Yaratganni tanigan karomatli insonlarning sifatlaridan biri shuki, bunday inson barcha mavjudotlarga , hatto hayvonlarga ham Haqning jilosi sifatida hurmat bilan muomalada bo'ladi. Hech bir insonni o'zidan pastga qo'ymaydi. Hatto yomon xulqli insonlar bilan ham munosabatda eng oqilona yo'ldan boradi. Mehinbonuning Farhodga bo'lgan samimiyat va hurmatida, Xusravga nisbatan tutgan yo'lida orifalarga xos xususiyat namoyon bo'ladi.

Er kishilarning zuhdu taqvoli va tasavvufiy hayotiga doir batafsil ma'lumot beruvchi manbalarda, afsuski, zohidona, obidona va so'fiyona hayot kechirgan ayollar hayoti haqida juda kam ma'lumot berilgan. Masalan, ilk avliyo tazkiranomasi hisoblangan “Tabaqotus sufiyya” nomli asarda 103 er so'fiy haqida so'z yuritiladi, ammo bitta ham ayol so'fiy haqida gapirilmaydi. Imom Qushayriy, Qujviriy, Gulobodiy va hatto bir ayol so'fiy zikrini mustasno qilganimizda, Fariduddin Attor ham “Tabaqotus sufiyya” asari muallifi Abu Abdurahmon As-Sulamiy kabi ayol avliyolar haqida so'z yuritmaydi. Tasavvufiy mavzular tadqiq qilingan asarlarni o'rganar ekanmiz, deyarli faqat mutasavvif so'fiy (er kishi)larning so'zlari, hollari, fikr-mulohazalari naql qilinadi. Bundan go'yo ayol

kishini zuhd va tasavvuf hayotiga kiritmaslik zuhd va tasavvufning taqozosidir, degan o‘y-xayolga borish ham mumkin. Ma’lum va mashhur Robiya Adaviyyadan bir majburiyat va zarurat holdagina so‘z ochiladi va u haqda ham ko‘p so‘z yuritilmaydi. Aslida bu holat Sharqdagi hayot taqozosi, andisha his-tuyg‘ularining natijasidir. Boshqa ilm sohalarida ham ahvol xuddi shunday. Zohidona va so‘fiyona juda ham ko‘p ayollar yashab o‘tganiga qaramay, tasavvufiy manbalarda ular haqida juda ham kam ma’lumot berilgan. Tarixda “Bojiyoni Rum” deb nomlangan dindor, zohida va mutasavvifa ayollar tashkiloti haqida haligacha batafsil ma’lumotga ega emasmiz. Holbuki, axiylar (birodarlar) jamoasi, Rum abdollari, O‘rta Osiyo, Sharq-u G‘arb mashoyixlari, mutasavviflariga doir batafsil ma’lumotlar bor.. Xalq og‘zaki ijodiga tegishli “Qissa kitoblar”da faqatgina ahli bayt ayollari – Hazrati Oisha, Hazrati Xadicha va Hazrati Fotima haqlarida hikoya qilingan, xolos.

Navoiy “Nasoyim” ni yozishda manbaa sifatida foydalangan Farididdin Attorning “Tazkirat ul- avliyo” asarida orifa ayol Robiya Adaviya haqida batafsil ma’lumot berilgan, ammo boshqa so‘fiy ayollar haqida to‘xtalmagan.

Alisher Navoiy bu toifa haqidagi bo‘limni “Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri “ deb nomlagan. Zikrlarning boshlanish qismida Navoiy shunday keltiradi: “Agar ayollar biz aytgandek bo‘lsalar, erkaklardan afzaldurlar. Quyoshning muannas ism ekanligi unga ayb emas, oynning muzakkar ism ekanligi unga faxr emas”.

Navoiy zikr etgan ayollar Basra (Robiya Adaviya, Maryam Basriya, Rayhonayi Voliha, Ufayrayi Obida, Kurdiya), Bayt ul-muqaddas (Lubobat ul-muta’abbida), Ajam (Sha’vona), Shom (Hakimayi Dimishqiya), Kufa (Ummi Hasson), Xuroson (Fotimayi Nisoburiya), Ardabil (Fotimai Badriyya), Marv (Bibiyaki Marviya), Misr (Imra’tun Misriya, Imra’tun Misriyai Uxro) va Xorazm (Imra’tun Xorazmiya) hududlarida yashagan. Ko‘pchiligining yashagan joyi haqida ma’lumot berilmagan.

Bu qismda birinchi bo'lib, mashhur orifa ayol **Robiya Adaviya** (714- 801) haqida hikoyat keltiriladi. Robiya Adaviya haqida boshqa manbalarda ham ma'lumotlar bor. Jumladan, "Fariddidun Attorning "Tazkirat ul-avliyo"sida, Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida ham u bilan bog'liq hikoyatlar uchraydi. Yana u haqida shunday ma'lumotlar keltiriladi: " Robiya Adaviya Allohga muhabbat g'oyasini ilgari surdi. Uningcha jannat orzusi va do'zax azobidan qo'rquv najot vositasi bo'la olmaydi. Inson Allohni shunday sevishi kerakki, uning ishq bu dunyo hoy-u havaslarini kuydirib yuborishi kerak. U Allohni faqat Alloh bo'lgani uchun sevish, o'z borlig'ini Allohning borlig'ida singdirish va Alloh jamoliga erishish g'oyalarini ilgari surdi. Robiya Adaviya tasavvuf tarixiga "ilohiy ishq" tushunchasini olib kirgan birinchi zohid deyiladi"²⁵.

"Nasoyim ul-muhabbat"da yozilishicha, bir kuni Sufyon Savriy Robiya oldiga bordi va qo'l ko'tarib, duo qildi:

- Yo Alloh, Sendan tinchlik so'rayman.

Robiya yig'ladi. Sufyon so'radi:

- Ne uchun yig'lading?

Robiya dedi:

- Meni sen yig'latding!

Sufyon dedi:

- Nechuk?

Robiya dedi:

- Tinchlik dunyoda uning tarkidir, ammo sen dunyoga bog'lanib qolgansan.

Ya'ni ilohiy muhabbat o'zlikdan voz kechib, dunyoviy orzu –niyatlarni yo'qotish- mahv etishni talab qiladi. Robiya Adaviya aytmoqchiday, dunyo muhabbatidan ko'ngil uzmasdan Iloh muhabbatini qozonish mumkin emas. Dunyo muhabbativa Iloh muhabbati bir-birini inkor etadigan tushunchlardir.

²⁵ Сирожиддинов Ш. Манба ва матн мушоҳадани талаб қилади // Шарқ юлдузи, 2011, 2-сон, 131-бет.

Mana shu dialogning o'zidanoq Robiya Adaviyaning o'z Yaratganini qanchalik kuchli muhabbat bilan sevishini anglab olish mumkin. Bunday ilohiy ishq esa faqat xos kishilargagina nasib etadi. Sufyon Savriyning bir ojizani ma'rifat va tariqatda o'zidan ustunligini tan olishi va uning oldiga maslahatga kelishi esa Robiya Adaviyaning tasavvufdagi martabasining qanchalik yuqori ekanligini isbot etadi.

Uning yana bir munojoti bor: "Dedi: ey Allohim, agar senga do'zax vahimasidan qo'rqib sig'insam, do'zaxda meni yondirib yubor; va agar jannat umidi uchun seni yaxshi ko'rsam, jannat eshigini men uchun yopib qo'y. Ammo agar faqat sen uchun senga ko'ngil qo'ysam, abadiyat jamolingni mendan darig' tutma". Robiya Adaviya shariatni kezib tariqat va hatto ma'rifat zinasini egallagan so'fiy ayol edi. U hol darajasining oxirgi pog'onasida Allohga yaqin turib, uni his etdi, abadiyatga erishdi va yaratganni kashf etdi. Bu manzil esa aloh yaratgan har xil jannatu do'zax va yeru osmondan ustun edi va shu bois orifa yaratgan jamoliga muhabbat bog'lab, uni qalbi bilan bildi va uning yuziga yuzini qo'ydi.

Bu holatda jannat kerak bo'lmasdi, zero Robiya haqiqiy jannatni haq visolidan topdi. Bu holat do'zax qo'rquvini ham rad etardi. Shuning uchun uning vahimasi ham bartaraf bo'lgan edi va u to'g'ridan- to'g'ri allohga yuz o'girib "seni sevganim do'zaxing vahimasidan emas, vaholanki, uni men hech narsaga arzitmayman, balki sening yuzingga erishganim va unda abadiyat topganimdadir" deydi.

Tasavvuf ta'limotida ilmlar ikki turga bo'linadi:

1. Zohiriy ilmlar. Ko'z bilam ko'rib va aniqlab bo'ladigan ilmlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni mavjud ilmlar kitobiy qoidada quyidagicha: aynul yaqin, ilmul yaqin va haqqul yaqin.

Aynul yaqin - biror narsa mohiyatini ko'z bilan ko'rib aniqlash.

Ilmul yaqin- biror narsa mohiyatini ilmiy tadqiq bilan aniqlash.

Haqqul yaqin – biror narsa mohiyatini haqiqat bilan aniqlash. Bular ilmning mezon qoidalari edi. Ilmning bu turlarini oddiy odamlar ham o'zlashtira oladi. Ya'ni ma'lum bosqichlarsiz ham inson bu ilmlarni egallashi mumkin.

2. Botiniy ilmlar- ichki ilmlar. Bu turkumga Alloh o'ziga yaqin kishi qalbiga g'aybdan inoyat etgan ilmlardir. Bu ilmlar quyidagicha: Ladunniy, voridot va voqi'.

Ladduniy ilmi - payg'ambar, orif va avliyolarga inoyat qilingan ilmdirki, o'zi ko'rmagan, o'qimagan kishi qalbiga tushgan.

Voridot ilmi- aqli va xotiriga keltirilgan tushunchalar.

Voqi' ilmi- tushida shakl va ko'rinishlar bilan ayon etilgan ilm.

Navoiy zikr etgan orifa ayollarning ko'pchiligi ladduniy ilm sohibalaridir. Fikr isbotini “Nasoyim ul-muhabbat” da Zunnun²⁶(796-861) tilidan hikoyat qilingan **Joriyayi Savdo** haqidagi ma'lumotlarda ham ko'rishimiz mumkin. Zunnun dediki, bir qora kanizakka bolalar tosh otardilar. Bu zindiqqa, ya'ni dindan qaytgan, xudosiz. Chunki u “Tangrini ko'rarman” dedi.

Men uning orqasidan bordim. Meni “Ey, Zunnun!” deb chorladi. “Sen meni qaydan taniding?” deb so'radim. Shunda u: “Aning (Allohning) do'stlarining jonlari aning sipohidur va bir-biriga oshnodurlar”, - deb javob beradi. Zunnun bolalarning gapi to'g'rimi? deganida esa: “Ularning gapi chin. Men Allohni tanidim va bundan hech uyalmaydurman” deb javob qaytaradi.

Hikoyat mazmunidan ko'rinib turibdiki, Zunnunni hech ko'rmagan kishining uning ismini aytib, tanib olishi bu – faqat ilmi ladunniy sohibasigagina xos xususiyat.

“Nasoyim ul-muhabbat” da nomi zikr etilgan Ahmad b. Abulhavoriyning zavjasi **Robiyayi Shomiya** ham ladunniy ilmi sohibasi. U bir kuni Ahmad

²⁶ “Nasoyim” da tilga olingan shayx. Tariqat uning maqomatlari haqida birinchi marta ma'lumot bergan mutassavuf. U birinchilardan bo'lib so'fiyona holatlar va karomatlarni so'z bilan ifodalagan.

b. Abulhavoriyga bir tog'orani ko'rsatib: "Unda amir ul- mo'minin Horun ar-Rashidning vafot etgani haqida bir yozuv ko'ryapman" – deydi. Ahmad b. Abulhavoriy surishtirib ko'rsaki, aynan o'sha kuni Horun ar-Rashid olamdan o'tibdi.

Shu o'rinda Abdulqodir Jiloniyning "Sirrul asror" kitobida keltirgan fikrlarini esga olish joiz: "Avliyolar uchun zohiriy ilm, balki qalbiga botindin tushgan ilm lozim". U yana yozadi: "Tasavvuf ahli derlarki, valiy payg'ambardin ustundir. Sabab uldurki, payg'ambarga Jabroil vositasida ilm keladi. Valiyning ilmi vositasiz"²⁷.

Ma'lumki, "Nasoyim" da nomlari tilga olingan ayollarning ko'pchiligi tasavvufning zohidlik davrida yashaganlar. Shuning uchun ular taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilganlar. Ularni maqsadiga erishtiruvchi yo'l esa nafs bilan kurashdan iborat bo'lgan. Bu to'g'risida **Imra'tun Xorazmiya** bilan bog'liq shunday ma'lumot keltiriladi: "Imom Yof'iyning naql qilishicha, Xorazm atrofida bir xotin bor ekanki, u yigirma yildan ortiq vaqt ichida biror yegulik va ichgulik bilan mashg'ul bo'lmadi". Shuningdek tazkirada xuddi shu mazmun bilan bog'liq ma'lumot **Imra'tun Misriya** haqida ham keltirilgan. "Imom Yof'iyning yozishicha, Misr atrofida yashaydigan bu zaifa o'ttiz yil hech narsa yemaydi va ichmaydi".

Tasavvuf ahli zikrida **maqomat** va **hol** tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. "Maqomot" - maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy- ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan:

1. Tavba.
2. Vara'.
3. Zuhd.
4. Faqr.

²⁷ Абдуқодир Жилоний "Сиррул асрор". Истанбул. 1996. 56-123- бетлар.

5. Sabr.
6. Xavf.
7. Rajo.
8. Tavakkul.
9. Rizo ²⁸.

Hol – maqomot darajalarini bir-bir egallab, muvaffaqiyatga erishgan solik yetadigan martaba bo’lib, u ruhiy taraqqiyotning natija- hosilasini bildiradi. Hol – o’ziga xos qisqa muddatli kayfiyat, qalbning porlashi, chaqmoq chaqilganday yarqiragan charog’on nurni tuyish lazzatidir. Tasavvufda holning qurb, muhabbat, shavq, uns, mujohida, mushohida va mukoshifa kabi bosqichlari e’tirof etiladi.

Robiyayi Shomiya haqidagi hikoyat tahlilida bu tushunchalarga alohida to’xtalish lozim. “Ul Ahmad b. Abulhavoriyning zavjasi erdi. Ahmad debdurki, aning ahvoli muxtalif (ixtilofli, qarama- qarshi) erdi, gohi anga ishq-u muhabbat (hol) g’alaba qilur erdi va gohi uns (hol) va gohi xavf (maqomot). Muhabbat g’alabasi mahalida aytur erdiki,

she’r :

[U shunday mahbubki, tengi yo’q, qalbmida undan boshqaga nasiba yo’q. U mahbub ko’zimdan va o’zimdan g’oyib bo’ldi, ammo ko’nglimdan g’oyib bo’lmadi] .

Bu so’zlarga bekorga aytilmagan. Chunki bu maqomdagi kishining qalbida kuchli tug’yon paydo bo’ladi va u betoqat –u bezovta ahvolga tushib qoladi. Bu maqomga yetgan kishi faqat barcha go’zalliklar manbai, qudratu nusrat, ne’matu rohat egasi Tangri tomon talpinadi hamda uning sifatlarini ko’ngliga jo qiladi.

Va uns holidan der erdiki,

She’r:

²⁸ Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент: "Movarounnahr" - "O'zbekiston", 2009. 26 -31-бетлар.

[Seni qalbimda sirdosh va suhbatdosh qildim, kimki menla ulfatchilikni xohlasa, jismimni topshirdim. Jismim suhbatdosh bilan, qalbim jononim ila ulfatdir].

Bu holga o'tgan kishi o'z jismini tark etib pok ruhiy holatga o'tadi. Zero, uns (do'stlashuv) ko'nikish, Xudo mehriga, shafqatiga odatlanish holatidir.

Va xavf hoida der erdiki,

she'r:

[Yo'l ozig'im ozdir, manzilimga yetkazolmaydi, ozig'im ozligiga yig'laymi yo yo'lning uzoqligiga? Ey orzum intihosi, meni o'tda kuydirasanmi? Nahot, barcha umidim va qo'rquvim foyda bermaydi?].

Bu maqomga erishgan so'fiy qalbida ishonchdan, imon aminidan chiqish, ikkilanish va tahlika paydo bo'ladi. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko'ngliga xavf- qo'rquv soladi.

Ufrayi Obida shu qadar yig'ladiki, umrining oxirida ko'zi ojiz bo'ldi. Bir kishi unga "Ko'rmaslik naqadar yomon!" deganida, u shunday dev javob qaytard: "Alloh taolo bilan o'rtamda parda bo'lmog'i undan ham yomon. Qalbimning ko'r bo'lib, buyruqlaridagi murodini tushunmasligi esa yomondan yomon" .

So'fiylarning asosiy a'mollaridan biri ishq bilan yo'g'rilgan qo'rqinchdir, ya'ni Ollohning mehridan umidlanmoq va qahridan qo'rqmoqlik.

Har bir musulmon kishining savob talab bo'lmog'i, ayniqsa, din rivojiga hissa qo'shishga harakat qilishi kerakligi hadislarda ham alohida e'tirof etilgan. Navoiy tazkirada zikr etgan ayollar orasida islom dini tamadduniga hissa qo'shgan ma'rifatli ayollarning borligi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, tazkirada Bibichayi Munajjima haqida shunday ma'lumot keltiriladi: "Kirmon mulkidandir. Tasavvuf ilmida o'z davrining eng ilg'ori edi, ammo ko'ngli darveshlikni mayl etgandi. Zamona podshohi va uning haram ahli bu ayolni bag'oyat hurmat qilardilar. U xiyobon boshida, o'z uyi atrofida masjidi jome'

qurdi va unga bor boyligini vaqf qilib berdi. U masjid hozirgacha bor va ko'p xaloyiq unda namoz o'qiydi...".

Aynan shu o'rinda Navoiyning quyidagi bayti yodga tushadi:

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq

Pok xotunlar ayog'ining izi,

Lut o'g'lin ko'rki soldi tiyralik

Ding'a nafs ilgida tab'i ojizi.

Dahr aro yoqti siyodat mash'alini,

Pokravliqtin rasululloh qizi.

Bibichayi Munajjimani Navoiy "Majolis un-nafois" ning 6- majlisida ham o'z ismi bilan eslatadi, ya'ni "Xoja Alouddin – Kirmon mulkidin. Xoja Afzaliddin Muhammadqa qarobatdur va Bibichayi Munajjimaning inisidur"²⁹.

²⁹ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдли. 13- жилд. Тошкент: Фан, 1997. 158-бет.

2-fasl. Asarda ma'rifatli ayollar xislat va fazilatlarining yoritilishi

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” ning kirish qismida ta’kidlaganidek, ruhiy kamolotga yetishgan kishilar oddiy insonlardan o’zlarining najib xislatlari va karomatlari bilan ajralib turishadi. Valiylar oddiy, kamtar va xokisor insonlar bo’lib, to’g’ri fikr yuritishadi va to’g’ri so’zlashadi. Bunday insonlar diyonatli, halol va pok kishilar bo’ladi. Haqning nazari tushgan insonlar halol bo’lmagan ishlarga qo’l urmaydilar, xalqona va faqirona turmush tarzi bilan yashab, haqiqat uchun kurashadi. Orifa ayollar zikrida ham xuddi shunday fazilat va karomat egalariidan bir nechasi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Jumladan, **Hafsa binti Sirinning** shunday karomatlari bor ekanki, namozg’a deb chiroq yoqarkanlar va chirog’i o’chib qolsa ham uylaridan nur chiqib turaverar ekan. Ummi Muhammad ya’ni Shayx Abdulqodir Giloniyning ammasi esa o’z karomati bilan yong’ir yog’dirib Gilon ahlini qurg’oqchilik balosidan asrab qolgan o’zgacha zakovatli ayollardan hisoblangan . Bu haqida “Nasoyim” dagi hikoyani o’qigan o’quvchi batafsil ma’lumotga ega bo’ladi.

Hayvonlar tilini anglash va hayvonot olamiga g’ayritabiiy kuch bilan ta’sir eta olish tasavvuf ta’limotida horiqulodda xislat sanaladi. “Nasoyim” da nomi keltirilgan **Fiddada** ham shunday karomat bo’lganki, u qo’y sog’ganida ham sut, ham bol olar ekan.

Lubobatul Mutaabbida (quddisa sirruho) haqida shunday ma’lumot keltiriladi

Quddusi sharifdan edi. “Haq taoloning meni (o’zidan) boshqasi bilan mashg’ul ko’rmog’idan uyalaman”, derdi. Bir kishi undan:

- Hajga ketyapman, u yerga borganimda qandoq duo qilay? – deb so’radi.
- Allohdan sendan xushnud bo’lmog’ini, seni xushnud kishilarning maqomiga yetkazmog’ini va do’stlari orasida majhul holga keltirmog’ini tilagin, – deb javob berdi.

Valiylar toifasiga xos uyat – faqat Yaratgandan uyalishdir. Ular Haq doim bizni ko'rib turadi, hech kimsa yo'q joyda ham Yaratganning nazari bo'ladi degan o'yda o'zlarini yomon odatlardan tiyishadi. Uyat insonni kamolotga yetaklovchi, yomon ishlardan tiyuvchi fazilat darajasida bo'lsagina solih uchun zarurdir.

“Nasoyim”da **Fotima binti Abu Bakr al-Kattoniy(quddisa sirruho)** haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: Bir kez Samnun Muhib muhabbat haqida gapirayotgan edi. Fotima uning so'zlarini tinglab o'tirganlar orasida edi. Toqat keltirolmay jon berdi. U bilan birga yana uch kishi jon taslim qildi.

Bu hikoyatdan quyidagicha xulosa kelib chiqadi: Tasavvuf ahlining maqsadi bitta- Haqning jamoliga musharraf bo'lmoq, ruhan ana shu mohiyatiga qaytmoq. So'fiylar ruhiyatidagi g'alayon- Ishq shunga undaydi. Ular uchun mutlaq haqiqatga erishmoqning yo'li muhabbat yo'lidir. Xos toifaning ishq alohida bir fazilatdan dunyoga keladi, shuning uchun ularning ishqdan maqsadi faqatgina Yaratgan jamoliga erishish sanaladi.

Ana shunday Yaratgan ishq bilan yashagan ayollardan biri **Maryamul Basriyya (quddisa sirruho)** haqida shunday hikoyat qilinadi: Basralik, Robiya Adaviyya bilan suhbatlashgan, uning xizmatida bo'lgan edi. Robiyaning vafotidan so'ng bir muddat yashagan, ko'pincha muhabbat haqida gapirar va shu mavzudagi so'zlarni eshitganida o'zini yo'qotar, behush bo'lar edi. Maryam Basriyya muhabbat bahs qilinayotgan bir majlisga kirib kelganida o't pufagi yorilib jon bergani naql qilingan.

U: “Osmonda sizlarning rizqro'zlaringiz va sizlarga va'da qilingan narsa (jannat) bordir” (Vazzoriyot, 22), oyatini eshitganimdan buyon rizq uchun aslo g'am yemadim, uning talabiga hech bir mashaqqat, qiyinchilikka ham tushmadim” degan ekan.

Mutasavvuf shayx Abulhasan Nuriy “tasavvufni nafsni tark etish va nafs balosidan qutulish” deb hisoblaydi. Nafsni yengish – bu ta'limotda eng ulug' fazilatdir. Tasavvuf ahlidan bo'lmish solihalarning nafsga eng katta dushman

sifatida qarashini quyidagi hikoyat orqali anglab olishimiz mumkin. **Rayhonai Voliha** Robiyya Adaviyyaning qarindoshi edi. Uning suhbatidan bahramand bo'lgan. Rayhona qirq yil boshini xam tutgan – ko'kka qaramagan. Kunduzlari ovqat yemas, kechalari esa uxlamasdi. Unga: “Nafsingga ko'p aziyat beryapsan” deyishganda, u: “Hecham undoq emas. Men kecha uyqusini kunduzga ko'chirdim, kunduzgi yeyish-ichishni esa kechaga, mana shu xolos”, deb javob bergan.

Shayx Ali bin Bindor as-Sayrofiy an-Nishopuriy aytaganidek, “tasavvuf shunday narsadurki, uning egasi ham zohirda va ham botida o'zini ko'rmaydi va faqat Haqni ko'rib va u bilan yashaydi”. “Nasoyim” da zikr etilgan orifa Bibik Marviyya shunday holdagi insonlardan edi.

Shayx Abu Said Abul Xayr (q.s.) hikoya qiladi: “Marvda bo'lgan chog'imda **Bibik** ismli bir kekxa ayol oldimga keldi va:

– Ey Abu Said, senga shikoyatga keldim, – dedi.

– Gapiring, eshitamiz, – dedim.

– Insonlar: “Bir lahza ham o'z holimizga tashlab qo'yma”, deb Allohga duo qilishyapti. Men esa o'ttiz yildirki: “Meni bir lahzagina bo'lsin o'z nafsimga qo'yib ber, toki kim ekanimni bir ko'rayin va shu onda men bormanmi, shuni bilay”, deb duo qilayapman. Lekin hali hanuz bu orzum amalga oshgani yo'q...

Hikoyatdan xulosa qilish mumkinki, tasavvuf haqiqiy solihga Haq bilan birga bo'lishni, o'zini butkul haqqa berib ko'zguidek uni ko'rishni, zohirda xalq, ammo botinda Haq bilan yashashni, banda timsolida fano bo'lib baqo (tiriklik) va Alloh ilmidan voqif bo'lib ruhoniyyat topishni o'rgatadi. O'zlikdan kechish, ya'ni jismdagi moddiy nafs ustidan g'alaba so'fiyda ma'lum fazilatlar shakllangach yuzaga keladi. Uning butun vujudi va borlig'i Yaratgan bilan band bo'ladi. Bu hodisa shu darajaga yetadiki, u bu yo'lda aql-hushini yo'qotib tiriklikda o'lik bo'ladi va yod-xayolida faqat Alloh nomi va zikri bo'lib, u o'zining timsolida Haq sifatlarini ko'radi. Bu esa so'fiyning komillikka erishgan darajasi bo'lib, unda so'fiy barhayot zotga aylanadi. Uning o'zidan begona bo'lishi va o'zini tamom yo'qotishi uning hayot tobeligidan najot topishidir. Jumladan, uning ozodligi

mangulikdadir va mangulik esa Alloh bilan birlashish bo'lib, bu omil so'fiy zotining asl haqiqati va mohiyatini bildiradi.

Tasavvuf ahli murid, ya'ni maqsadga intiluvchi odam hisoblanadi va maqsadga erishish yo'lida o'zlariga pir tanlashadi. Pirsiz solik manzilga yetolmaydi. Chunki odam o'zini o'zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi. Yana bu yo'lda shogird ham metin irodali bo'lib, tariqat yo'lga ixlos bilan kirishi kerak, chunki haqiqiy irodat uni saodatga olib boradi. Buning uchun esa turli vositalar qo'llanadi. Shayx tarbiya paytida muridning aqliy-mantiqiy tafakkurini bartaraf etib, unga hissiy tuyg'ularni mustahkamlashga yordam beradi. Shuning uchun orifa ayollar ham bu yo'lda o'zlariga ustoz tanlab, ularning aytganiga rioya etishgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" ning ma'rifatli ayollarga bag'ishlangan qismida pir- murshid masalasiga doir quyidagi hikoyatlarni keltirib o'tadi:

“ Kurdiyya(quddisa sirruho) Basrali va ahvazlik edi. Sha'vonaga xizmat qilgan.

Shunday naql qilinadi: "Sha'vonaning xizmatida edim, bir kecha uxlab qolibman. Oyog'i bilan tepib, aytdi: "Turgil, ey Kurdiyya! Uyqu joyi bu yer emas, qabrdir". Undan so'radilar:

- Sha'vonaning suhbatlarida qanday barakotlar topding?
- Uning suhbatlaridan bahramand bo'lganim ondin e'tiboran dunyoni aslo do'st tutmadim, rizq uchun aslo qayg'urmadim, talab xususida dunyo ahlidan hech kimsani nazarimda ulug' ko'rmadim, musulmonlardan hech birini xor ko'rmadim".

Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy" asarida keltirilganidek, tasavvuf ta'limotidagi ustoz agar shogirdi tariqat yo'lidan adashsa, unga ma'naviy madad berib, mushkulini oson qilishi, to'g'ri yo'lga solishi kerak. Ba'zan esa xuddi Kurdiyyaning ustozlari Sha'vonadek jazolab ham turishi kerak. Shundagina shogirdga solikka xos fazilatlar shakllanadi. Shuningdek "Nasoyim" da Robiya Shomiyyaning ustozlari Hakima Damashqiya haqida ham ma'lumot keltirilgan va uning shogirdiga aytgan quyidagi so'zlari alohida e'tirof etilgan: "Bir insonning

ko'nglini Xudodan ayirgan holda ikki xotinga bermog'i qanday bo'lur? "Alloh huzuriga toza dil bilan kelganlargagina (foйда berur)" (Shuaro, 89), oyatining tafsiri senga yetib bormabdi, shekilli. – Bu oyatning tafsiri shulki, ko'ngilda Undan boshqa hech narsa bo'lmagan holda Haq taologa borgaysan".

Shu o'rinda ustozga xos yana bir fazilat har qanday muammoning yechimini topa olish xislati ham namoyon bo'ladi.

Shayx Najmiddin Kubro "Risola at-turuq" ("Tariqatlar risolasi") va "Al – Usul al-ashara" (O'nta usul") nomli kitoblarida tasavvuf vakiliga ma'rifatga erishishi uchun o'nta asosiy talab qo'yilishini yozadi. "Nasoyim" da e'tirof etilgan **Umni Hasson** o'n talabdan ikkisini o'zida mukammal fazilat sifatida shakllantirgan edi. Bular: tavakkul va qanoat hisoblanib, tavakkul- o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz Allohga suyanish demak. Rizqni Alloh beradi, inson taqdirini Alloh belgilaydi va inson amallari ham Alloh irodasi doirasida bo'lishi kerak. Chunki yaxshilik va yomonlik, to'qlik va ochlik, boylik va kambag'allik ham Allohdandir. Tavakkulga ega kishida, albatta, qanoat ham shakllanadi. Qanoat- kamolotning eng maqbul yo'li hisoblanib, insonni inson qiladi, ma'naviyat bezagi bilan bezatadi. Ana shunday talablarni bosib o'tgan Umni Hasson Kufalik zohida ayollardan edi. Sufyoni Savriy uni ziyorat qilgani borgan. Ba'zilar so'ziga qaraganida, Sufyoni Savriy uni zavjalikka so'ragan. Sufyoni Savriy shunday hikoya qiladi: Bir kuni unga duch keldim. Uyida eski bir xasr (bo'yra)dan boshqa narsa ko'rmadim.

– Agar amakingning o'g'illariga maktub yozilsa, ular sening holingdan xabardor bo'lib turishadi, u-bu narsa yetishmasa hozirlashadi, – dedim. U:

– Ey Sufyon! – dedi. – Bundan oldin ko'nglimda va ko'zimda sening juda ham ulkan bir qadring bor edi. Men dunyoni unga hokim va qodir bo'lgan haqiqiy egasidan tilamayapman, endi unga molik bo'lmaganlardan so'raymi? Ey Sufyon! Alloh taoloni bir tarafga qo'yib bir lahza ham Undan boshqasi bilan mashg'ul bo'lishni xohlamasman, bunga mening ko'nglim rozi bo'lmas!

Bu so'zlar Sufyoni Savriyga qattiq ta'sir qildi, yig'ladi.

Zero, Ummi Hasson Alloh sari intilgan, POKLIK olamiga qarab kamol kasb etgan edi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, so'fiy odam har yerda, har doim Allohning ismlarini tilidan qo'ymasligi kerak, kalimalarni, duolarni muntazam takrorlab turishi bilan qalbg'a Alloh taolo sifatleri va Zoti joylanadi. Alloh nuri porlay boshlaydi. Orifa ayol **Fotimai Badriyyaning** zikr haqidagi fikrlari quyidagi hikoyatda bayon etilgan:

Ardabil (viloyati)da yashar edi. Orifa ayol bo'lganligi naql qilinadi. Tasavvuf shayxlaridan biri unga hazrati Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning Haq taolodan naqlan: "Men Meni zikr qilganning do'stidirman" (qudsiy) hadisi haqida so'radi. Fotimai Badriyya savol bergan odam bilan bir oz suhbat qilgach, shunday dedi: "Sen zikr qilar ekansan, bunga bog'liq o'laroq zikr qilinganni mushohada qilursan. Nihoyat, zamon va makondan xoli bir yerda sening zikring Uning zikrida foniy bo'lur, Uning seni zikr qilishi esa, boqiy qolur".

Alisher Navoiy : "Nasoyim" da Imra'tun Majhula va Zunnun Misriy suhbatini keltiradi. Zunnun undan seni ojiz va ozg'in ko'raman. Bemormisan, deb so'raganida Imra'tun Majhula shunday deb javob beradi: "Ollohni sevuvchi dunyoda dardmanddir, bemorligi tuzalmaydi, faqat uning davosi dard. Yaratuvchining oshig'i shunday bo'ladiki, uni topguncha eslab, muhabbatida yonadi". Xulosa chiqarganda esa bu toifa Haqning visoli yo'lida dardga yo'liqqan. Dardgacha bo'lgan yo'l esa dunyoga daxldorlikdan qochmoqlikdir. Chunki dunyoviy lazzatlarning yorug'liklari qabr ostonasiga qadardir. Imra'tun Majhula mana shu zavq, mana shu dard va mana shu ishqni jisman hamda ruhan his qiladi va targ'ib etadi. Shularni o'zida mujassam qila olgan zot ahli shirkdan mutlaqo uzoqlashib ahli shukrga qo'shiladi.

"Nasoyim" da valiyalar toifasiga xos bir qator umumiy qonun –qoidalar kodeksi- axloq, odob, yumshoqlik, muloyimlik, sabr, rizo, "odob va karomatlar" bayon qilinib, ularga kichik hikoyalar ilova etilgan. Jumladan, bu haqida shunday deydi:

“Ul adabdurki, yaxshi va yamong’a va ulug’ va kichikka bajo keltururlar. Andoqki, barcha xaloyiqdin o’zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchag’a xizmat huzurida bo’lurlar. Hattoki o’z farzandlariga xodim va mamluklarig’aki, har necha alardin beqoidalig’ ko’rsalarxushunat bila alarga so’z demaslar, balki nasihatni yumshog’ va chuchuk til bila qilurlar...”

“Nasoyim” da zikr etilgan **Ummu Muhammad** ham o’z farzandiga shunday fazilat bilan munosabatda bo’ladi..

U Shayx Abu Abdulloh ibn Xafifning validai muhtaramasidir. Obida va qanoatli xonimlardan edi. Abu Abdulloh ibn Xafif bilan dengiz yo’li bilan hajga borgan. Bu obida ayolning mukoshafa (kashfu karomatlari) va mujohada (riyozatlari) juda ham ko’p.

Aydilarki, Shayx Abu Abdulloh ibn Xafif ham Ramazon oyining oxirgi o’n kunida tunlarini ibodat bilan kechirardi. Qadr kechasi kelganida tomga chiqib namoz o’qir edi. Ana shunday bir kecha uning onasi uy ichida Haq taologa mutavajjih (sidqu ixlos bilan yuzlangan holatda) o’tirgan edi. Tuyqus qadr kechasining fayz va nuri zohir bo’la boshladi. Shunda “Muhammad, bolajonim! Qaerdasan? Sen u yerda izlayotgan narsa bu yerdadir”, deya ovoz berdi. Shayx tomdan pastga tushdi va porlab jilvalanayotgan nurlarni ko’rib, validasining oyoqlariga o’zini otib o’pdi, yig’lay boshladi.

Shayx (Abu Abdulloh ibn Xafif) keyinchalik shunday degan: “Men onamning qadru qiymatini ana o’shanda yana bir karra bilib olganman”. Shu o’rinda Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonidan o’rin olgan 361-qit’a yodga tushadi:

**O’g’ulg’a ano haqqi atodin ko’proq ekan bobda andaki, durg’a daryo
tarbiyati bulutdin ortug’roqdur**

Ano o’rnin ato tutmas o’g’ulg’a

Ki, mumkindur o’g’ul bo’lmoq atosiz.

Masiho birla Maryamdin qiyos et

Ki, imkon yo‘qturur bo‘lmoq anosiz.

Navoiy ijodida ayolga, ayniqsa, onaga alohida ehtirom ruhi sezilib turadi. Uning ijodi mazmun-mundarijasida, g‘oyalarida ona roziligi, ona ko‘ngli shodligi bilan bog‘liq butun nozik masalalar yoritilgan. Navoiy o‘z kitobxoniga onalar haqqi- hurmatini, rozilik darajasini hatto islomning farz amallaridan biri bo‘lgan haj orqali topgan savobning darajasidan ham yuksak tutish kerakligini uqtiradi. Buni “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning o‘limi oldidan onasi Bonuga atb yozgan xati mazmunida ham anglash mumkin. Umuman olganda, har qanday ayol ona sifatida buyuk karomatlar sohibasidir. Zero, onalar Yaratuvchining yordamchilaridir va shu fazilatlari bilan Haqqa yaqindirlar. Fikr isbotini quyidagi hikoya mazmunidan ham topish mumkin.

Tilmizayi Sariy Saqatiyning o‘g‘li tegirmonga tushib ketadi. Har qanday holdan oldindan xabar topadigan ayolning o‘g‘lini suvga tushib o‘ldi deb o‘ylagan ustod esa ona oldiga borib bola o‘limidan xabardor qilmoqchi bo‘ladi. Lekin ayol ishonmaydi va suv oldiga kelib chaqirsa o‘g‘li “labbay” deb javob beradi. Bu holatdan ustoz g‘oyat hayratga tushadi va sababini qidiradi. Shunda biladiki, ayol voqealarni oldindan his etish karomatiga ega bo‘ladi.

Umidvorlik – Yaratganning marhamatiga ishonish, undan madad kutish ham alohida fazilat sanaladi va Haq bunday bandalarini o‘ziga yaqin oladi. Noumidlik iymonni sustlashtiradi, nafsoniy hurujlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun Alloh marhamatidan umidvorlik valiyalar toifasiga xos tamadan yiroq yuksak insoniy fazilatdir.

“Nasoyim” da keltirilgan quyidagi hikoyat esa ana shunday fazilat sohibasi haqida: “Shayx Najibuddin Ali ibn Buzdush aytadiki: “Bir paytlar Gulpayagon shahridan bir ayol Sherozga kelgan edi. Vaqti vaqti bilan meni ziyorat qilardi. Xabardor (qalb ko‘zi ochiq) bir ayol edi. (U paytlar) qo‘lim bir oz kalta (daromadim oz) va u bu holimni bilardi. Uyimda ikkita ombor bor edi. Agar Alloh

oziq-ovqatdan arpa, bug‘doy kabi bir nima bersa, o‘sha omborlarga qo‘yar edim. Hozir esa ular bo‘m-bo‘sh edi. Narsa kelguncha toza-ozodagina tursin deya eshiklarini yopgan edim. U ayol bu omborlarning ichida arpa-bug‘doy bor deb o‘yladi va menga:

- Modomiki qo‘ling kalta – daromading yo‘q, nochor ahvoldasan, unda nega shu omborlardagi narsalardan foydalanmaysan?
- Ular bo‘sh, qup-quruq.
- Unda nega ularni yopib qo‘ygansan?
- Toza tursin deya.

Ayol turib omborlarning eshiklarini ochdi va shunday dedi:

- Bular yopiq bo‘lgani uchun bo‘m-bo‘sh. Agar ochiq tursa, och va ochiq bo‘lgan og‘izday bo‘lishadi. Haq taolo esa u og‘izning rizqini yuboradi. Ehtiyoj oni kelganida, hamma narsaning rizqini yana o‘ziga munosib bir narsadan yetkazadi. Bu omborlarning rizqi ekindir. Qorinlari bo‘sh ekanligi ma‘lum bo‘lishi bilan ekin va yemish bilan to‘ladi.
- U ayol bu ishni qilgach (ya‘ni, bu so‘zlarni aytgach), Haq taolo darhol shu qadar bug‘doy yubordiki, u ombor bo‘lmalarining hammasi to‘ldi. U ayol Alloh taoloning valiylaridan biri edi”.

Mo‘tabar kishilar fe‘l-atvoriga xos ajib belgilar “Nasoyim ul-muhabbat” da **Fotima binti Musanno** to‘g‘risidagi ma‘lumotda ham o‘z aksini topgan.

“...Yoshi to‘qson beshdan oshgan edi. Va men yoshligida yuzining go‘zalligidan unga qarashga uyalar edim. Uni kim ko‘rsa o‘n to‘rt yoshda deb o‘ylardi. Haq taolo bergan uning ajoyib bir holi bor edi. Xizmatini qilib yurganlar ichida u meni yaxshi ko‘rar va men haqimda bunday der edi: “Falon kishi kabisini hanuz ko‘rmadim. Qachon oldimga kelsa, butuni bilan kelur, tashqarida hech narsa qoldirmas. Qachon oldimdan ketadigan bo‘lsa, butuni bilan ketar va oldimda hech narsa qoldirmas”.

Navoiy bu toifaga xos fazilatlarni tasvirlashda muxtasar tasvir usulidan foydalangan. Bu esa oz so'z bilan ko'p ma'no ifodalash san'atini shakllantirgan. Muallif fazilatlarni his-hayajonga berilmay, bir xil maromda, sokin, jiddiy ohang bilan hikoya qilgan. Qo'shimcha izohning yo'qligi o'quvchini mushohadaga chorlaydi. Masalan, **Misrlik boshqa bir ayol** haqidagi ma'lumotda shu uslub o'z aksini topgan "Bu toifadan biri hikoya qilgan: Misr yerida bir ayolni ko'rdim. Yozu qish hayron va iztirobli, ikki oyoqda tik turardi. Na kechasi o'tirar va na kunduzi. Quyoshdan, yomg'irdan saqlanadigan bir boshpanasi ham yo'q edi. Ilonlar, chayonlar atrofida o'rmalab yurishardi".

Navoiyning "Nasoyim" ida ma'lumot berilgan barcha valiylar o'ziga xos fazilatlarni kamol toptirgan. Jumladan, ma'rifatli ayollar ham bashariyatga o'rnak bo'ladigan yuksak xislatlarga ega. Shunday qilib, tasavvuf ilmi axloq ilmi bilan baqamti va birgalikda jarayon topib, umuminsoniy fazilatlarga boy va olam-u odam taqdiri bilan bog'liq muammolarni targ'ib-tashviq etadi. Insonni kamolotga yetkazishda insoniy fazilatlarni tarbiyalashga e'tibor qaratadi.

XULOSA

Alisher Navoiy o'zbek adabiyotshunosligining barcha sohalari, shu jumladan, tazkiranavislik sohasiga ham munosib hissasini qo'shgan. Uning "Majolis un- nafa'is" va "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralari bu sohaga oid muhim manbaa sifatida e'tirof etish mumkin.

Navoiyning adabiyotshunoslikdagi muhim xizmatlaridan yana biri u tarjimachilik sohasini yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Lekin Navoiyning tarjimalari oddiy tarjimalar emas. Chunki uning bu sohadagi har bir ishi ("Xamsa", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi) ijodiy yondashilganligi, puxtaligi hamda traditsiya va novatorlik tutashgan bir nuqtada paydo bo'lishi bilan ajralib turadi.

Navoiyning har bir asarida navoiyona zakiylik, mukammal ilmiy tahlil, mulohazaga boy talqin va hayotiy- falasafiy xulosalar mavjudki, bu ijodkorning o'ziga xos uslubini yuzaga keltiradi.

Yuqorida qayd etilgan xususiyatlarning barchasi Alisher Navoiyning ishda o'rganilayotgan "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ham mujassam. Bundan tashqari aynan mana shu asarda Navoiyning Sharqda mukammal ta'limot darajasiga ko'tarilgan tasavvuf sohasiga oid ilmiy-falasafiy qarshlari ham aks etgan.

Bitiruv malakaviy ishida "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasining ma'lum qismlarini tahlilga tortish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugun har bir jabhada ajdodlarimizning qarashlaridan o'rnak olib, ularning mulohazalariga tayanib ish ko'rmoqdamiz. Zero, yurtboshimiz Islom Karimov e'tirof etganidek, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Xotin-qizlarning xalq ma'naviy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasiga asosiy e'tibor qaratilayotgan bir davrda madaniy merosimizning o'zak qismi bo'lmish Navoiy dahosining ma'rifatli xotin-qizlar haqidagi qarashlarini o'rganish muhim masalalardan hisoblanadi.

2. Shuningdek bu mavzuni mukammal o'rganish o'zbek adabiyotshunosligida juda oz ko'lamni tashkil etayotgan tadqiqotlar doirasini kengaytirishga xizmat

qiladi. Bu esa hayotimizda yana bir qancha jabhalarning rivojlanishiga asos bo'ladi.

3. "Nasoyim ul-muhabbat" asari muallifning tasavvuf sohasidagi yangicha mulohazalarini o'zida mujassam etganligi bilan, shuningdek tazkira bayonida odatiy usulni qo'llamaganligi bilan Navoiy tazkiranavisligida muhim ahamiyat kasb etadi.
4. "Nasoyim ul-muhabbat" asariga garchi Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasining tarjimai sifatida qaralsada, tazkirada mustaqil bayon uslubi, aynan tarjima emas, ijodiy yondashilgan asar sifatidagi xususiyatlar yetakchilik qildi.
5. "Nafahot ul-uns" va "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralarning o'xshash va farqli jihatlari o'rganilib, farqli xususiyatlari ustunlik qilishi kuzatildi.
6. Navoiyning tazkiradagi ilmiy yangiligi yangi muqaddima kiritganligi, ikki yuzdan ortiq shayxlar (asosan turkiy mashoyixlar) haqida batafsil ma'lumotlar keltirganligidan iborat ekanligi aniqlandi.
7. O'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asariga doir turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, asarning qomusiylikini belgilab beruvchi didaktik, ilmiy, badiiy va tarixiy jihatlar muhim ahamiyatga ega.
8. Tazkira haqidagi turli munosabatlar va tadqiqotlar doirasi asarning qomusiy jihatlarini yoritib beradi.
9. Ishda Navoiy ijodida yoritilgan xotin-qizlar ning badiiy va tarixiy timsollari hamda "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi ma'rifatli ayollar talqinining bog'liqlik jihatlariga asosiy e'tibor qaratildi.

Umuman olganda, Navoiy tazkirada soliha ayollar xislat va fazilatlarini o'ziga xos uslubda, sodda bayon tarzida yoritib bergan. O'ttiz beshta ma'rifatli ayol talqini orqali tasavvufda ayollarning mavqeyi, ularga bo'lgan munosabat asosli hikoyatlar orqali aks ettirilgan. Asarning ma'rifatli ayollar zikri keltirilgan qismini mukammal o'rganib, Yaratgan o'z

ma'rifatini, ilmini xohlaganiga in'om etadi, bu borada erkak yoki ayolni ajratmaydi. Haqning nazari tushgan, mehridan, ilmidan bahramand insonlar orasida ayollar ham bor. Bunday orifa xotin-qizlar tasavvufda ma'lum bosqichlarni erkaklar qatorida bosib o'tgan Haqning ehson (karomatlar nazarda tutilmoqda)lariga loyiq bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Navoiy hurmat bilan e'tirof etgandek ma'rifatli ayollarning borligi esa, jamiyatda xotin – qizlarning mavqeyini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. T.: "O'zbekiston" 2015. - b
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent: "Sharq" nashriyoti-manbaa konsemi bosh tahririyati, 1998. -32 b
3. Karimov I.A. Yangicha fikrash va ishlash davr talabi. -Toshkent: "O'zbekiston". 1997. -384 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.- Toshkent: "Ma'naviyat". 2008.- 173 b.

II. Imiy-badiiy adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17 том. Т.: Фан, 2001.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдли. 13-жилд. Тошкент: Фан, 1997.
3. Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат: (Илмий- танқидий матн). Сўзбоши. Ҳ.Ислоний. – Т.: "Movarounnahr", 2011.
4. Ислоний Х. И. "Насойим ул- муҳаббат" Алишера Навои и его научно-критический текст. Дисс. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. Ташкент, 1990.
5. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.–Т.: «Ўзбекистон», 1993.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. II том . – Т.: "Фан" 1977.
7. Навоий асарлари луғати. А.Навоий асарларининг XV томлигига илова. Тошкент.1972.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 1-tom. -Toshkent: "Fan", 1983. -656b.
9. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 2-tom. -Toshkent: "Fan", 1983. -644 b.

10. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 3-tom. -Toshkent "Fan", 1984.-624 b.
11. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 4-tom. -Toshkent "Fan", 1985. - 636 b.
12. Абдуқодир Жилоний “Сиррул асрор”. Истанбул. 1996.
13. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро, 2000.
14. Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. Т.: “O'zbekiston” 2015.
15. Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. (Илмий- оммабоп рисола). Термиз. 2007.
16. Soliha ayollar. To‘plab nashrga tayyorlovchi Bahridin Umrzoq «Movarounnahr» Toshkent.2003.
17. Абдуқодиров А. Жомий “Нафаҳот ул-унс”и ва Навоий “Насойим ул-муҳаббат”ининг муқаддималари. Навоийга армуғон (III китоб) Тошкент, 2003.
18. Рўзиева Ў. “Насойим ул-муҳаббат” да сўфий аёллар зикри. Навоийга армуғон (IV китоб) Тошкент, 2004.
19. Файзиев Т. Темурий маликалар. Тошкент : Ўзбекистон,2012.
20. Қаюмов А. Муҳаббат шаббодалари // Ўзбекистон маданияти,1967, 15 март;
21. Ҳомидий Ҳ. Навоийнинг “Насоимул- муҳаббат” асарига доир// Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 1-сон,74-77-бетлар.
22. Ражабова Б.Шахс ҳуқуқи ва адолат талқини // Ўзбек тили ва адабиёти,2001, 1-сон,27-30-бетлар.
23. Ражабова Б. Алишер Навоий ва Ҳалима она ҳақида // Навоий абадияти. Гулистон,2011.27-30- бетлар.
24. Ражабова Б. “Насойим ул-муҳаббат”да оналар образи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, 3-сон.

25. Ражабова Б. Билқиси замон ким? // Қалб ва қадрият. Тошкент: Фан. 27-30-бетлар.
26. Сирожиддинов Ш. Манба ва матн мушоҳадани талаб қилади // Шарқ юлдузи, 2011, 2-сон.
27. Эргашев Қ. “Насойим ул-муҳаббат” да баён тарзига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 1-сон.
28. Рамазонов Н. “Насойим ул-муҳаббат” ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 1-сон.
29. Қаюмов А. “Насойим”ни варақлаганда // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 1-сон.
30. Karimiy G'. Mutaxassis mas'uliyati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2010, 44 - son.

“Nasoyim ul- muhabbat” asari bo’yicha lug’at

Abdol- valiylikning belgili bir darajasiga erishgan guruh, xudoga yaqinlar (VII 21)

Abyot – she’rlar (VII 21)

Abushqa- er (VII 25)

Amoma- salla, dastor (VII 46)

Ariq qolg’ay- pokiza turadi (VII 56)

Astor- pardalar (VII 62)

Aqron- yoshdosh,tengdosh,yaqin (VII 72)

Bavvob- darvozabon,eshik qorovuli (VII 78)

Bas- I. kifoya,yetarli emasmi II.ko’p,g’oyat (96)

Bilod- shaharlar,mamlakatlar (118)

Borgoh- podshoh saroyi (128)

Zuhdu var’a- taqvo va parhez (145)

Vallohu a’lam- xudo biluvchandir (145)

Vasila- vosita,sabab(146)

Vosil- erishuvchi,yetishuvchi (151)

Giryon- yig’lovchi (160)

Gunnom qilmoq- nomsiz, nomi o’chgan,e’tibordan qolgan(168)

Gunjoyish- sig’arlik, sig’adigan (169)

Dayr- butxona,mayxona (175)

Doiya- taqozo,orzu,sabab (VII 196)

Ja(i) vori- yoni,atrofi (VII 225)

Zarf- ko'pincha suyuqlik narsalar solinadigan idish (247)

Zuhhod- zohidlar (261)

Intiho – oxir, so'ng (277)

Istiqso- aniqlashga urinish,tekshirish (285)

Istig'roqe- fikrga cho'mish (285)

Ittilo'- xabardor bo'lmoq,tushunmoq (286)

Ittifoq qilmoq- bir fikrga kelmoq (287)

Iturmak – yo'qotmoq (287)

Ixtilot- aralashish, bordi- keldi (288)

Ishnamak- yaltiramoq,porlamoq (290)

Ishtig'ol - shug'ullanish,mashg'ulot (291)

Iya – egasi (292)

Iho- tiriltirish, jonlantirish (294)

Karomat- go'yo avliyo tomonidan sodir bo'ladi deb hisoblangan xoriqulodda ish-
harakat (mo'jiza) (305)

Kasir- ko'p, mo'l (306)

Kibor- ulug' kishilar (310)

Liqo – ko'rinish, yuz, chehra (337)

Lojaram- shuning uchun (VII 337)

Mag'firat- kechirish

Mazallat- xo'rluk, xorlik, tubanlik, pastlik (VII 351)

Makruh- nafratli,jirkanch,iste'mol qilish lozim bo'lmagan (354)

Masofat qat'i qilmoq- yo'l bosmoq

Mahjub- pardalangan, uyalgan,o'ralgan (384)

Muassir- ta'sir etuvchi (401)

Muvofaqat- kelishish,uyg'unlik,erishilgan (404)

Mudovamat- davom ettirish, uzluksiz ishlash (405)

Mujovir – Makkadagi mozorda turg'un bo'luvchi (VII 407)

Mujohadot- sa'y va g'ayrat

Mujtahida- biror ishda tirishuvchi, sa'y-g'ayrat ko'rsatuvchi (407)

Mutaabbida- ibodat qiluvchi (420)

Musohib- hamsuhbat,do'st (422)

Mustavfiy- zabt etuvchi,yoyilgan (422)

Mutaajib bo'lmoq- taajjublanmoq (424)

Mutasarif – biror ishni istaganicha bajara oluvchi (428)

Muxtalif- har xil, turlicha, ixtilofli,qarama- qarshi (432)

Muhib- sevuvchi,do'st (440)

Navohiy—mamlakat,atroflar (446)

Nav' - tur,jins (VII 447)

Nag'amot- kuylar,ohang (457)

Nahib- talash,o'g'irlash,qo'rquv (458)

Nahib- oriq,ozg'in,nimjon (VII 458)

Niso – ayol (462)

Nozir- qarovchi,ko'z soluvchi (465)

Oyot- nishonalar, belgilar (479)

Pas- keyin,so'ng (VII 504)

Rijolulloh- erkaklar (527)

Rioyat – e'tiborga olish,hurmatlash (527)

Ruq'a – maktub, parcha (533)

Sayhal- hayqiriq,qichqiriq (541)

Saromad- oldingi, ilg'or (550)

Sodot – sayidlar (566)

Soyil- 1.so'rovchi,istovchi. 2.Tilanchi (567)

Suluk- yo'l,ravish (574)

Taammul qilmoq- chuqur o'ylash, mulohaza (580)

Tavhid- so'fiylikning 5- davri, bitta deb bilish (584)

Tazallum- zulmdan shikoyat qilish (586)

Tajrid- ortiqcha narsalardan holi qilish,yakkalash (586)

Tarannum- kuylash, go'zal so'zlash (595)

Tafrid- yolg'izlanish, yakkalanish (600)

Tajahhus – surishtirmoq, tekshirmoq (600)

Tasht – lagan, tog'ora (602)

Taqarrub- yaqinlashish (VII 603)

Tahqiq- tekshirish kerakki (VII 606)

Tegra- aylana,atrof (VII 607)

Turfatul-ayn- ko'z ochib yumguncha (VII 617)

Ubbod- obidlar (VII 621)

Usruk- mast,juda,g'oyat (VII 626)

Ucha- orqa,biqin (VII 628)

Favt- 1.Qo'ldan berish. 2. O'lim,o'lmoq (VII 630)

Xozin- xazinachi,posbon (VII 658)

Xo'b – yoqimli, go'zal (VII 671)

Shinoxtin- tushunishini,tanishini (VII 697)

Shuhud- I.guvoh, II.ko'z bilan ko'ra olish darajada mavjud (VII 705)

Eranlar- erlar,mardalr (VII 708)

Qoyim- tik turuvchi (VII 739)

Qudamo- qadimgilar,o'tmishdagilar (VII 744)

Qudsiy- poklikka mansub (VII 744)

Qurbi- yaqinlik,yaqin bo'lish (VII 745)

Qo'lmoq- xotinlikka olmoq, sovchi yubormoq (VII 748)

Qo'pmoq- turmoq (VII 749)

MUNDARIJA

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| KIRISH | 14 |
| I bob. ALISHER NAVOIY TAZKIRANAVISLIGIDA “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARINING O’ZIGA XOS TUTGAN O’RNI. | |
| 1.01. “Nafahot ul-uns” va “Nasoyim ul- muhabbat” asarlarining mushtarak va farqli jihatlari..... | 21 |
| 1.02. O’zbek adabiyotshunosligida “Nasoyim ul-muhabbat” asariga bo’lgan munosabat: tahlil, talqin va xulosalar | 29 |
| II bob. NAVOIY IJODIDA XOTIN-QIZLAR BADIY TIMSOLLARI VA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI. | |
| 2.01. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ma’rifatli ayollar talqini. | 39 |
| 2.02. Asarda ma’rifatli ayollar xislat va fazilatlarining yoritilishi..... | 49 |
| XULOSA | 51 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI | 55 |
| LUG’AT | 60 |

